

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
T A` L I M V A Z I R L I G I**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası**

G'ulomova Olmaxon

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIAT MAVZUSIGA
BAG'ISHLANGAN INSHOLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI**

5111700 - Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi
bo'yicha bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: o'qit. M.Hazratqulov

Malakaviy bitiruv ishi Boshlang'ich ta'limmetodikasi kafedrasida bajarildi.
Kafedraning 2016-yil 19-maydagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga
tavsiya etildi
(bayonnoma № 10).

Kafedra mudiri: dots. Shodiyev F

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2016-yil ___iyundagi majlisida
himoya qilindi va _____ foizga baholandi (bayonnoma № ____).

YaDAK raisi: _____

A'zolari: _____

Samarqand – 2016

REJA:

I. KIRISH.

II. ASOSIY QISM:

1.bob.Insho yozish malakasi va uni shakllantirish usullari.

1.1.Insho turlari va uni tashkil etish.

1.2.Inshoni tashkil etish bosqichlari

1.3. Insho mavzusi va uni yoritish uslubiyati

2-bob.Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsligida berilgan tabiat mavzusidagi matnlar asosida insho tashkil etish.

2.1. Tabiat mavzusidagi insholarni tashkil etish

2.2.O'quvchilarni tarbiyalashda inshoning ahamiyati.

2.3.Boshlang'ich sinflarda tabiat tasviri bilan bog'liq insholarni tashkil etish usullari.

2.4.O'quvchilar inshosini tahlil qilish

Ilova

III. XULOSA.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

I.KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Insho - ijodiy ish: o'quvchidan faollik, qiziqish, fikr bildirishni talab qiladi. Material tayyorlash, uni tartibga solish, insho kompozitsiyasi va rejasi haqida o'ylash, logik bog'lanishni belgilash, so'z, so'z birikmasini tanlash, gap tuzish va uni o'zaro bog'lash, imloni tekshirish kabi barcha murakkab ishlar o'quvchidan aqliy kuchini to'la ishga solish bilan birga, o'z ma'naviy faoliyatini boshqarish ko'nikmasini ham talab etadi.

Inshoda til nazariyasi nutq tajribasi bilan qo'shiladi. O'quvchi inshoni, u mustaqil, ijodiy xarakterda bo'lgani, «o'ziniki»ni yozgani uchun ham sevadi.

Maktab rivojining barcha bosqichlarida bolalarning mustaqil tuzgan hikoyasi - inshoga alohida ahamiyat berilgan. Maktablar yangi, o'quvchilar nutqini o'stirish, aqliy, ijodiy o'sishiga mo'ljallangan dasturga o'tishi munosabati bilan uning ahamiyati yanada o'sdi. Bugungi kunda tabiat mavzusi global muammolardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham o'quvchilarni kichik maktab yoshidanoq tabiatni asrash, uning boyliklaridan oqilona foydalanish, tabiat ne'matlarini ko'paytirish va boshqa ijobiy munosabatlar doirasida tarbiyalashda bu mavzudagi inshoning o'rnini kattadir.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Boshlang'ich sinflarda tabiat mavzusi bilan bog'liq o'qish samaradorligini ijobiy tomonga ta'sir qilishning eng qulay usulidir. Sinfda va sinfdan tashqari o'qish darslari boshlang'ich sinflarda o'tiladigan barcha predmet dasturlarining bo'limlari bilan bevosita bog'liq. O'qish darslarida o'tilgan mavzular asosida badiiy kitoblar axtarish, asar qahramonlarining nomlarini yozish, ularni tasvirlab berish, ijodiy rasm ishlash, fikrni yakunlash uchun mos maqollar yod olish ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb metodik manba ekanligini aniqlash, ularning didaktik asosini belgilash ham mashg'ulotning predmeti hisoblanadi.

Og'zaki va yozma inshoga o'rgatish jarayonida o'quvchilarda mavzuni tushunish va yoritish, o'z inshoini aniq fikrga bo'ysundirish, material to'plash, uni tartibga solish va joylashtirish, reja tuzish va reja asosida yozish, mazmunga va

nutq vaziyatiga mos ravishda til vositalaridan foydalanish, yozgan inshosini takomillashtirish ko'nikmalari hosil qilinadi. Bulardan tashqari, «texnik» vazifalar ham amalga oshiriladi, ya'ni matnni yozishda imloviy va husnixatga doir matnni abzaslarga bo'lish, xat boshidan yozish, hoshiyaga rioya qilish kabi talablarga ham amal qilinadi.

Og'zaki va yozma insho material manbaiga, mustaqillik darajasiga, tayyorlash usuli, janri va til xususiyatiga qarab tasnif qilinadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifasi. Savod o'rgatish mashg'ulotlarida va unga ma'lum bir o'zgartirishlar kiritishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samarali usullarini shakllantirish, insho yozish orqali o'quvchilarning aqliy va ijodiy faolligini oshirish bitiruv malakaviy ishi mavzusi bo'yicha olib borayotgan tadqiqot ishimizning maqsadi hisoblanadi.

Yuqorida oldimizga qo'ygan maqsadimizdan kelib chiqib:

1. Bitiruv malakaviy ishida tanlangan mavzu bo'yicha ijtimoiy-pedagogik, falsafiy-ma'rifiy, ilmiy-metodik hamda o'quv adabiyotlarni o'rganib chiqish va umumlashtirish.

2. O'qish darsligidagi tabiat mavzusiga oid matnlar bilan ishlash jarayonini o'rganish va tahlil qilish.

3. Mavzuga oid ilmiy metodik manbalarni o'rganish va tahlil qilish asosida savod o'rgatish mashg'ulotlarini shakllantirishga oid mashg'ulot mazmuni, maqsadi va qurilishini o'rganish hamda qayta takomillashtirish dolzarb nuammo ekanligini aniqlash.

4. Boshlang'ich sinflarda tabiat mavzusi bilan bog'liq o'qish mashg'ulotlariga oid mashqlarning samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan yangi pedagogik texnologiyalar asosida dars ishlanmalarini yaratish.

5. Tabiat mavzusiga bag'ishlangan insholarni tashkil qilish orqali o'quvchilarda ona tabiatga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantirish.

Tadqiqot ishining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu bitiruv malakaviy ishini bajarish natijasida boshlang'ich sinflarda tabiat mavzusi bilan bog'liq kichik yoshdagi o'quvchilarni ona tilini puxta o'zlashtirishga

tayyorlashning ajralmas qismi, ta'lim jarayonida ularni ahloqiy-estetik tarbiyalashning muhim vositasi sifatida qaraladi. Tabiat mavzusiga bag'ishlangan janrlarning xilma-xil namunalari bilan tanishtirish, ularda kitobxonlik madaniyatini tiklashga oid mashg'ulot ishlanmalarini, uning maqsadi, mazmuni, tipi, qurilishiga oid yangi tushunchalari bilan boyitishning didaktik asoslari ko'rib chiqildi hamda ilmiy-metodik tavsiyalar bilan boyitish nazarda tutildi.

Tadqiqot natijasida aniqlangan ilmiy yondashuvlar, ishlab chiqilgan tavsiyalardan nutq madaniyatini shakllantirishga oid mashg'ulotlarini boyitish, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarida olib boriladigan turli o'quv predmetlarini takomillashtirish hamda ularning bilimini, malakasini oshirishda keng foydalaniladi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, har bir bobda uchtdan qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1.BOB.INSHO YOZISH MALAKASI VA UNI SHAKLLANTIRISH USULLARI.

1.1.Insho turlari va uni tashkil etish.

Avvalombor, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tilidan egallagan bilim saviyasi ko'pdan biri hammamizni tashvishga solayotgan hech kimga sir emas. Samaradorlik avvalo o'quvchilarga "Nimani o'qitish" masalasi bilan chambarchas bog'liq. Ona tili ta'limidan o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan zaruriy bilimlar hamda shu bilimlarga muvofiq keladigan malaka va ko'nikmalar tizimi to'g'ri belgilansagina "Qanday o'qitish kerak" degan savolga javob topish mumkin. Yosh avlodni tarbiyalashda o'z ona tilida aniq, tushunarli, ta'sirchan, chiroyli so'zlarga o'rgatish masalasi asosiy o'rinda turadi. Insho arabcha so'z bo'lib, "yaratish", "bunyod qilish", "qurish" ma'nosini anglatadi. Inshoda muallifning so'z qo'llash mahorati, fikriy tafakkuri, bilim va dunyoqarashi, savodi namoyon bo'ladi. Insho mazmun va mohiyatiga ko'ra uch guruhga bo'linadi:

1. Adabiy mavzudagi insholar;
2. Adabiy-ijodiy mavzudagi insholar;
3. Erkin mavzudagi insholar.

Insho 1-sinfda kichik og'zaki axborot va extirosli hikoyadan boshlanib, o'z fikrini ifodalashga, o'quvchi shaxsining tashkil topishiga xizmat qiladigan, ta'lim-tarbiyaiy ahamiyatga ega bo'lgan jiddiy rejali aqliy ishga aylanadi. Insho shaxsni shakllantirishda foydali vosita bo'lib, his-hayajon uyg'otadi, aqliy mustaqillikka, fikrlashga, ko'rgan-kechirganlari va o'zlashtirganlarini baholashga, kuzatuvchanlikka, voqea-hodisalar o'rtasidagi sabab-natija bog'lanishni topishga, ularni qiyoslashga, xulosa chiqarishga o'rgatadi. Insho fikrni tartibga soladi. Tabiat hodisalarini kuzatish bir hafta, hatto undan ko'proq davom etadi, rasmlar esa insho yozishdan oldin ko'riladi. Insho yozish yoki og'zaki hikoya qilish darsni ilgari bajarilgan ishlarning yakunidir. Insho darsning umumlshtiruvchilik roli bog'lanishli nutq sohasidagi ko'nikmalarni egallash me'yoriga qarab ortib boradi. Insho yozish uchun 2-sinfda, odatda, bir dars zarur bo'lib qolsa, ikkinchi darsdan

15-20 daqiqa 3-4 sinflarda bir yoki bir yarim dars ayrim vaqtlarda 2- darsgacha ajratiladi.

O'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish bugungi kungacha umumta'lim maktablri oldida turgan asosiy vazifalarda hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda yozdiriladigan inshoning muhim turlaridan biri kichik yoshdagi o'quvchilarning hayotiy tajribasiga asoslangan inshodir. Rasm asosida va tabiatni kuzatish asosida yoziladigan insho maktablarda tez-tez o'tkaziladi, chunki rasm bolalar nutqiy ijodini, tasavvurini boyitishga xizmat qiladi. Rasm, ekskursiyagaa olib chiqish bolalar sezgisiga ta'sir etadi. Hayotning bola tajribasida hali uchramagan tomonlarini ochadi. Rasm o'quvchilarga tanish bo'lgan hodisalarni chuqur anglashga ham yordam beradi.

Tabiatni kuzatish asosida yoziladigan insho o'quvchilar tasavvurini, hayotot dunyosini boyitadi. O'quvchilar tabiatda qanday o'zgarishlar sodir bo'lishini va nimalarning guvohi bo'lganini o'zlaricha bayon qiladilar.

Inshoning tarbiyaviy ahamiyati tanlandigan mavzuga, shuningdek, insho ustida o'quvchilar qanchalik mustaqil ihlashi va qiziqishiga, inshoning g'oyasiga ham bog'liq.

Insho bolalarning voqea-hodisalarni chuqur his etishiga yordam beradi, izchil fikrlashga o'rgatadi, tilga va abadiy ijodga qiziqishlarini oshiradi. Bolalar eng qiziqarli va o'zlariga yaqin voqea-hodisalar haqida hikoyalar qiladilar va yozadilar, ularning inshosi mustaqil ishlash malakasini o'stiradi, ommaviy faollikni oshiradi.

Tabiatda biz turli xil o'zgarishlarni kuzatamiz. Fasllar haqida she'rlarni ham bilgan o'quvchilar keltirib o'tishadi:

Kuz

Shukur Sa'dulla

G'ir-g'ir shamol yeladi,

Buni hamma biladi.

O'giradi yelga yuz,

Marhamat, kel, oltin kuz!

Maktab borar o'g'il-qiz,
Qo'lda kitob hamda gul
Oltin oqar daladan,
Tong yorishgan palladan.
Quyosh tushar taftidan,
Qo'rqib qishning aftidan
Sarg'ayadi ko'katlar,
Barg to'kadi daraxtlar
Hosil yig'ib olinar
Qishga zamin solinar.

Mana masalan, “Men nimalarni bilaman” mavzusidagi tanlovga bolalar juda qiziqadilar. Tanlov bolalarning mehnat ko'nikmalarini aniqlabgina qolmay, ularni uyda, polizda, bog'da ishlashga rag'batlantiradi. Maqsad kishilarga foyda keltiruvchi mehnatga hurmatni tarbiyalashdir. Qishloq maktab o'quvchilari otalariga sabzavotlar ekish, hosilni yig'ish, o'tin tayyorlash kabi ishlarda qanday yordamlashganliklari haqida yozadilar. Insho uchun iloji boricha tor-aniq chegaralash mumkin bo'lgan mavzuni tavsiya qilish foydali. Misol uchun “Kuz” mavzusi o'quvchilar uchun juda keng mavzu bo'lib, bunda o'quvchi umuman kuzda qilinadigan ishlar haqida yozishi mumkin., lekin mavzuning aniq chegarasini bilmaydi.

Ekskursiya asosidagi insho uchun material yig'ish uni yozishdan ancha ilgari boshlanadi; tabiat hodisalarini kuzatish bir hafta, hatto undan ko'proq davom etadi; rasmlar esa insho yozishdan oldin ko'riladi.

Juda yaxshi yozilgan inshoni sinfda ifodali o'qib berish va tahlil qilish bolalarni tarbiyalaydi. Ba'zi maktablarda bolalar inshosi va hatto bolalar she'rlari to'plami tuziladi, yaxshi yoziladigan hikoya uchun tanlov e'lon qilinadi. Ilyos Muslimning “Quvnoq o'tsin ta'tilingiz!” she'rini ifodali o'qib berib, ularga zanjir metodidan o'qib borishlarni davom ettiraman. yozda qanday mevalar pishishi, qanday ishlar amalga oshirilishi haqida ular bilan suhbat darsini olib boraman. Mana shu she'r mazmuniga mos hamma oq varaqqa rasm chizib kelishlarini

aytaman. Ular bilan dars davomida tabiatning o'zgaruvchan manzarasini kuzatishlaringiz asosida so'zlab berishlarini aytaman.

Tabiat ham inson misoli
Ardoqlashni istaydi dildan
E'tiborsiz befarqliklarni
So'zlay olmas, aytolmas dildan.

Inshoni yozishga o'rgatishda avvalo o'quvchilarga ular bilan birgalikda "Sinkven" metodidan foydalanaman. Bu metodda 6 ta o'quvchini doskaga chiqarib oltoviga 6 ta tabiat mavzusida 6 ta so'z beraman. ular bu so'zlardan foydalanib mazmunli matn tuza olishlari kerak. Bu metod o'quvchilarni fikrlashga o'rgatadi. Shu orqali o'quvchilarni insho yozishga tayyorlayman. Bundan tashqari ularga "Yoz o'tmoqda soz" mavzusida insho yozdiraman. Shunda ularga yozgi ta'tilda nimalar bilan shug'ullanganini insho qilib yozishlarini aytaman. 3-sinf o'qish kitobida Abdulla Avloniyning "Yoz" nomli she'rini ham tushuntirib berib, yodlab kelishlarini aytaman.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang'ich ta'limning hozirgi kundagi muhim vazifalaridan biri kichik yoshdagi o'quvchilarni vatanparvarlik, xalqparvarlik ruhida tarbiyalashdir. Negaki bugungi jajji bolajonlar mustaqil O'zbekistonimizning kelajagidir. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Vatanparvarlik, fuqarolar yakdilligini yosh va mustaqil O'zbekiston davlatining barpo etilayotgan negizi" hisoblanadi.

Biz bo'lajak pedagoglar ana shu nuqtai nazar orqali o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishimiz lozim. Maktab ostonasiga qadam qo'ygan yosh bolaning yozilmagan oppoq daftarga o'xshaydi.

1.2. Inshoni tashkil etish bosqichlari

Insho yozishning hech qiyin tomoni yo‘q, asosiysi – o‘quvchida o‘ziga yaqin va qiziqarli mavzuni tanlay bilish qobiliyatining rivojlangan darajada bo‘lishi sanaladi. Insho mavzulari maktab dasturidagi adabiy asarlar yoki umuminsoniy qadriyatlar haqida bo‘lishi buzilmas qoidaga aylangan. Har kim o‘ziga yoqqan mavzuni tanlashi mumkin. Insho yozma tafakkur va bilimlarga, shaxsiy tahlil, tajriba va hissiyotlarga asoslangan shaxsiy fikrni yozma tarzda ifodalashni nazarda tutadi.

Agar mavzu o‘quvchiga yaxshi tanish bo‘lsa, u bu haqda istagancha uzoq gapirishi mumkin. Mana shu davomli nutq va suhbatlarni qog‘ozga tushirish kerak.

Havoning global tarzda isib ketishi haqida nima deb o‘ylaysiz? Kumushni Abdulla Qodiriyning sevimli qahramoni deb hisoblaysizmi? Yozgi ta‘tilni qanday o‘tkazdingiz?

Yoshlar yelkalarida bo‘m-bo‘sh tuvakni emas, balki fikrlar va qarashlar qaynagan boshlarni ko‘tarib yuribdilar. Bu fikrlar darsliklarda bayon qilingan yoki o‘qituvchi tomonidan xattaxta yonida aytib turilgan fikrlarga mos kelmasligi mumkin, biroq ular mavjudlik huquqiga ega.

Insho reja talab qilmasa ham, har bir o‘quvchining ongida uning bayoni ma‘lum darajada o‘z aksini topadi. O‘quvchidan inshoni yozishga kirisharkan, mavzu doirasidan chetga chiqmagan holda reja tuzib olishi kerak, o‘laylik, dastlab personajning xarakteri va biografiyasi haqida qisqacha ma‘lumot berish, so‘ng epizodik bayonlar bilan uning xulqiga baho berilishi kerak. Keyin asar muallifining kundaliklar va xatlarida bayon qilingan fikrlarini keltirish joiz. Xulosada esa to‘qima obraz va zamonaviylik o‘rtasidagi mutanosiblikni ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir.

Inshoda uning mavzusiga mos keladigan iqtiboslar va hikmatli so‘zlardan ham foydalanish mumkin.

Matnga mavzuga mos tushadigan epigraf alohida ko‘rk bag‘ishlaydi, unga tanlangan iqtibos qisqa bo‘lishi va muallifga emas, balki insho matniga

yoʻnaltirilgan boʻlishi lozim. Keng tarqalgan, koʻp takrorlanadigan “qanotli soʻzlar”dan qochish lozim. Iboralardan epigraf sifatida foydalanib boʻlmaydi.

Inshoni qanday qilib toʻgʻri yozish haqida aniq bir qoida yoʻq. Insho hajmining minimum va maksimum darajasi berilishi mumkin yoki qancha soʻzdan iborat boʻlishi belgilanishi mumkin, qolgani barchasi ijodiy fikrlash uchun qoldiriladi. Biroq zamonaviy, maʼlumotli, tilni yaxshi biladigan oʻquvchining inshosida nimalar boʻlishi shart emasligi haqida gapirish mumkin, xolos.

Shunday qilib, yaxshi inshoda quyidagilarga yoʻl qoʻymasligi kerak:

- * gʻaliz leksik konstruksiyalar, sodda yigʻiq gaplar (mazmuni intonatsion taʼkidlash uchun qoʻllanilgan yigʻiq gaplar bundan mustasno);

- * kamida ikkita xatboshida soʻzlar va soʻz birikmalarini asossiz takrorlash – oʻzbek tilida maʼnodosh soʻzlar koʻpchilikni tashkil qiladi;

- * juda ham murakkab sodda yoyiq (hatto butun bir xatboshini egallagan, butun bir tinish belgilar jamlanmasini toʻplagan) gaplar tuzish;

- * etita gapdan iborat boʻlgan katta xatboshilardan foydalanish;

- * bayon qilingan fikrni yana qayta yozish;

- * fikrni mantiqsiz dalillash;

- * hajvdan ortiqcha foydalanish;

- * oddiy soʻzlashuv uslubi va slengdan foydalanish;

- * “hujjatlartili”ga xos qoli soʻzlardan;

- * inson, narsa-buyum yoki hodisaga nisbatan “berilgan” soʻzini qoʻllash;

- * meʼyordan ortiq badiiylikka berilish, sifatlash va koʻchimlardan ortiqcha foydalanish;

- * imloviy, ishoraviy va uslubiy xatolarga yoʻl qoʻyish

Hammasidan oldin mavzuni ochib beradigan tayanch tushunchalarning mavjudligi yoki yoʻqligidan qatʼi nazar, insho matnini hayotiy dalillar bilan mustahkamlash uchun asosiy gʻoyani shakllantirib olish lozim. Shuning qoralama nusxada inshoning namunaviy rejasini tuzib olish kerak. Ana oʻshanda ishni bajarish jarayonida oʻquvchi mavzuni yoritishda “chekkaga oʻtib ketmaydi”.

Eslatib o'tmoqchimizki, to'g'ri yozilgan insho uch qismga bo'linadi. Quyida ana shu uch qismning o'ziga xosliklari keltirilgan:

1. Kirish: tezis, asosiy g'oya

O'quvchi muhokama-insho yozishga kirishganida, uning birinchi satrlaridanoq kishi diqqatini tortish maqsadida muammoning mohiyatini bayon qilishi juda muhim. Qoidaga muvofiq, mavzuning yoritilishida o'quvchi o'z nuqtayi nazarini aniqlab olishi uchun 3-4 gap yetarli sanaladi.

2. Asosiy qism: dalillar va isbotlar

Asosiy qism insho hajmining 2/3 qismidan iborat bo'lishi kerak. Bu bo'limda insho mavzusida ilgari surilgan fikrni kamida uchta har xil isbotlar (barchaga ma'lum tarixiy voqealar, statistika ma'lumotlari, mavzuga doir vaziyatlar tasvirlangan badiiy asarlar) bilan dalillashi, mavzuning mohiyatini ochib berish kerak. Shuni yodda tutish lozimki, shaxsiy tajriba faqatgina asosiy dalillarga qo'shimcha bo'la oladi. O'quvchiga o'z mulohazalarining nechog'li to'g'riligini aniqlab, tushunib olishi uchun o'z tezisini ichida, ovoz chiqarmay aytib berish va "Nima uchun?" degan savolga javob berish topshiriladi.

*Bunda dalillarni to'g'ri joylashtirish uchun zinapoya tamoyilidan foydanish tavsiya qilinadi: **butunlay ishonchli**→**yetarlicha ishonchli**→ **eng ishonchli***

3. Xulosa

Inshoning xulosa qismida natijalar, albatta, keltirilishi zarur: o'quvchi bunda olg'a surilgan muammoni hal qilish bo'yicha o'z fikrlarini keltirishi, maslahatlashishi va hatto yangi qoidalarni keltirishi mumkin. Xulosa qismining hajmi, taxminan, kirish qismi hajmi bilan bir xil bo'lishi kerak.

Muhokama-insho yozish sirlari

Maktab insholari – tasviriy insho, rivoya-insho, muhokama-insholar orasida eng murakkabi muhokama-insho sanaladi. Birinchidan, muhokama-insho o'quvchidan nafaqat o'z fikrlarini chiroyli tarzda savodxonlik bilan ifodalash, balki mavzu bo'yicha o'z shaxsiy fikriga ega bo'lishni, uni badiiy ifodalab, homiya qilish qobiliyatini ham talab qiladi. Ikkinchidan, o'quvchi o'rganilayotgan

muammo bayon qilinayotgan daliliy materialni chuqur bilishi lozim bo‘ladi. Shu sababli, muhokama-insho va uni yozish bu boradagi dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Muhokama-insho haqidagi fikrlarimizni quyidagicha rejalashtirsak bo‘ladi:

*muhokama-inshoning qurilishi;

*kirish qismini yozish;

*fikrlarni dalillash;

*xulosa qismini yozish;

*muhokama-inshoni “bezash”;

Muhokama-inshoning qurilishi

Muhokama-inshoning qurilishi quyidagicha bo‘ladi:

Isbot talab qiladigan tezis-holatdan iborat kirish.

Dalillash: tezisda ifodalangan muammoning 2-3tadan kam bo‘lmagan isboti.

Tezisda ko‘rsatilgan fikrning qat’iy isboti ifodalangan xulosa.

Insho hajmi quyidagicha bo‘lishi lozim:

Kirish+xulosa=insho hajmining 1/3 qismi– ya’ni agar insho uch sahifadan iborat bo‘lsa, kirish va xulosa qismi bir betdan oshmasligi lozim.

Muhokama-inshoning har bir qismini qizil chiziqdan boshlash lozim.

Kirish qanday yoziladi?

Muhokama-inshoning kirish qismi o‘quvchini muammoning qo‘yilishi bilan tanishtirishi, ya’ni qoidaga muvofiq, savol yoki sitata bilan ifodalanishi lozim. Masalan:

“O‘tkan kunlar” romanida Otabek-Kumush fojeasining aybdori kim?

“Zamonaviy manqurtlar” – ular kimlar?

Navoiyning “Hayratul-abror” dostonida so‘z qudratini tasvirlash masalalari.

Bu mavzular o‘quvchini mumtoz adabiy asarlar haqida o‘ylashga undaydi, shuning uchun inshoning kirish qismida aynan nimani tasvirlash, nima haqida fikr yuritish lozimligini ko‘rsatadi.

Insho bayonida yoritilishi zarur bo‘lgan asosiy tezis shakllantiriladi. “Zamonaviy manqurtlar” – ular kimlar?” mavzusining kirish qismi uchun namuna:

“Ch.Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romani, garchi yaratilganiga ancha yillar bo‘lgan bo‘lsa-da, ayni damda ham o‘zining dolzarbligini yo‘qotmagan. Buning sababi nimada? Jo‘lomonova Nayman ona qanday kishilarning timsoli? Inson o‘zligi va ajdodlar xotirasi o‘rtasidagi uzilmas halqa nimalardan iborat? Ayni damda, ya‘ni globallashuv davrida inson o‘zligi nimalarga tayanadi? O‘ta “zamonaviylashgan” odam xarakterida “o‘zlik”dan uzoqlashish bilan manqurtlikning munosabati qanday?”

Birinchi navbatda, o‘quvchini asar berilgan “Manqurt afsonasi” rivoyatining bosh qahramoni Nayman ona shaxsiyati qiziqtiradi. Nayman ona – kuchli shaxs. Jo‘ng janglar qo‘liga asir tushib, xotirasidan ayrilgan o‘g‘lini qutqarish uchun yol‘g‘iz o‘zi yo‘lga otlanadi. O‘g‘liga xotirasini qaytarish maqsadida unga bolalagida aytgan qo‘shiqlarini aytib beradi. Biroq, xotirasidan, o‘zligidan batamom ayrilgan, allaqachon manqurtga aylangan o‘g‘il oxir-oqibat, jo‘ng jang xo‘jayinining undovi bilan o‘z onasini kamondan o‘qotib o‘ldiradi. Manqurtda ona, ona-Vatan va ularni anglash kabi tuyg‘ular butunlay so‘ngan bo‘ladi. Shu sababli u hatto o‘z tuqqan onasiga ham o‘q uzish va uni o‘ldirish darajasiga boradi.

Xo‘sh, unda zamonaviy manqurtlar kimlar?”

Dalillash: kirish qismi yozildi, tezis aniqlandi, biroq muhokama-inshoni dalillarsiz qanday yozish mumkin? Aynan ana shu dalil-isbotlar o‘quvchining mavzuda ko‘tarilgan muammolarni qay darajada bilishlarini ko‘rsatadi.

Ushbu insho mavzusi uchun qanday dalil-isbotlar zarur? Buni quyidagi jadval orqali ifodalash mumkin:

Dalillar	Namunalar
----------	-----------

<p>Insonning o'zligini yo'qotishga bo'lgan har qanday urinish misli ko'rilmagan yovuzlikdir.</p>	<p>* Jo'ng janglar tekin, sodiq qulga ega bo'lish uchun asirga tushganlarni manqurtga aylantiradilar. Maxsus usul bilan manqurtga aylangan kishilar faqat o'z xo'jasining buyrug'inigina bajaradi, uning oqibatini o'ylamaydilar.</p> <p>* Zamonaviy manqurtlar esa zamonaviylikni niqob qilib, o'z xalqi o'tmishidan, tarixidan, qadriyatlaridan hazar qiladi. Ular ham hukmron mafkuraning buyurgan har bir topshirig'ini oqibatini o'ylamay bajaradilar.</p>
<p>O'zligini yo'qotgan odam tirik robotdan farq qilmaydi.</p>	<p>* Robot ko'rinishi odamga o'xshasa ham, odamdan ziyod ish bajarsa ham, bari bir, u bajargan ishlarining oqibati haqida o'ylamaydi.</p> <p>* Manqurt ham xuddi shunday, robotdan farqi: yeydi, ichadi, uxlaydi.</p> <p>* Zamonaviy manqurt uchun qorni to'yib ovqatlansa, ishiga muayyan tartib bo'yicha borib-kelsa, o'ziga topshirilgan ishni, u qanday oqibatlarga olib kelmasin, bajonidil bajarsa, "kattalar"ga yoqsa, bo'ldi, shuning o'zi yetarli.</p>

Dalillar bir-biri bilan izchil bog‘lanishi lozim: asardagi manqurt va zamonaviy manqurtlar. Muhokama maqsadi: zamonaviy dunyoda “zamonaviy manqurt” qanday shakllanishini isbotlab berish.

Shuni esda saqlash lozimki, dalillar 4-5 tadan ortiq bo‘lishi va ular insho mavzusini yoritishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Xulosa:

Muhokama-inshoni to‘g‘ri yozish haqida boshqotirganda, xulosa qismining o‘ziga xos yozish uslubini unutmash lozim. Unda muhokama natijalari va undan kelib chiqadiga xulosalar bayon etilishi kerak.

Muhokama-insho yozish uchun umumiy tavsiyalar:

Xulosani qismini quyidagi jumlar bilan yozishni boshlang:

“Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, muallif o‘quvchilarga shu narsani tushuntirib berishlariga imkon beradiki, ...”, “Shunday qilib, bu haqdagi muhokamani to‘xtatar ekanmiz, shunday xulosaga kelamiz...”, “Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, muammoning muhim ekanligini yana bir bor eslatib o‘tmoqchimiz...” va boshqalar.

Yuqorida aytilgan gaplarni yana takrorlashning hojati yo‘q. Xulosa, bu – inshoda aytilgan fikrlarning eng qimmatli yakunidir. Fikrning tartibini ifodalash uchun qo‘llaniladigan “birinchidan”, “ikkinchidan”, “uchinchidan” kabi kirish so‘zlaridan mavzu yuzasidan chiqarilgan shaxsiy xulosalarni keltirish maqsadida qo‘llash o‘rinlidir.

Muhokama-insho janr sifatida yakuniy xulosalarni ko‘zda tutmaydi. Bunda insho yozuvchi o‘quvchi farazni olg‘a surib, uni ochish uchun yetarli dalillarni tanlar ekan, tadqiqotchi rolini bajaradi. Inshoda asosiy e‘tiborni o‘quvchini mushohadaga chorlaydigan xulosaga qaratish kutilgan natijani, ya‘ni inshoning muvaffaqiyatli yozilganligini bildiradi:

“Muallif tomonidan ko‘tarilgan mavzu adabiyotning abadiy mavzularidan biri hisoblanadi. Chunki inson uchun xotirasidan ayrilish dunyodagi eng katta, mudhish hodisalardan biri ekanligini kim inkor eta oladi?”

Muhokama-inshoni qanday “bezash” kerak?

Nima uchun muhokama-inshoni “bezash” kerak? – degan savol tug‘ilishi tabiiy. Chunki muhokama-insho uslubiga ko‘ra ilmiy-tadqiqot ishini eslatadi: dalillar, farazlar, isbotlar...

Bir qarashda bu to‘g‘ri. Biroq har qanday insho, u qaysi janrda bo‘lmasin, bari bir, ijodiy ish sanaladi, sharhlarga esa hojat yo‘q. Insho uni o‘quvchilarning ruhiyatiga ta’sir o‘tkazishi kerak.

Buning uchun inshoda umume’triofdagi so‘z va iboralar, dalil-isbotlar guldastasidan namuna sifatida foydalanish zarur. Masalan, zamonaviy manqurtlar mavzusidagi inshoga o‘zligini unutib, turli xil diniy-ekstremistik oqimlar girdobiga tushib qolgan kimsalar haqida OAVda e’lon qilingan maqola va materiallar tahlili juda mos keladi.

Inshoga asosiy asardan yoki boshqa yozuvchilarning asarlaridan olingan qisqa iqtibos (sitata)lar ham zeb bo‘ladi. Iqtiboslar turli xil: to‘g‘ri ma’noda ham, ko‘chma ma’noda ham bo‘lishi mumkin.

Mualliflarning aynan berilgan fikrlari, albatta, qo‘shirnoqqa olinishi zarur. Ko‘chma (noaniq) iqtiboslarda uning asosiy mazmuniga putur yetkazmaslik birinchi o‘rinda turadi.

Agar muhokama-inshoga uning mazmuniga mos keladigan epigraf tanlansa, juda yaxshi. Chunki epigraf, birinchidan, inshoning “bezagi” sanalsa, ikkinchidan, asosiy kompozitsion vositalardan biri hisoblanadi. O‘quvchida ba’zan inshoning kirish qismida bevosita epigrafga murojaat qilish imkoni paydo bo‘ladi: “Epigrafda aytilgan fikrga ko‘ra, ...” deb inshoni yozishdan asosiy maqsad ko‘rsatilishi mumkin. Hatto xulosa qismida ham epigrafga murojaat qilsa bo‘ladi: “Epigrafda keltirilgan fikrga qaytarkanman, shuni ayitishim lozimki,”

O‘zingizni tekshiring:

Insho yozishni tugallab bo‘lgandan so‘ng uni yana qayta o‘qib chiqish kerak va uning nechog‘li mantiqiy ekanligiga, dalillarning yetarli va ishonarli ekanligiga e’tibor qaratish lozim.

O‘quvchidan yana qismlarning o‘zaro aloqasini tekshirib chiqish talab qilinadi. Bunda muvozanatning buzilmaganligiga, ya’ni kirish qismining asosiy qismdan ko‘p emasligiga diqqat qilinadi.

Agar insho matnida imlosi o‘quvchida shubha uyg‘otgan so‘z qo‘llanilgan bo‘lsa, uni ma’nodoshiga aylantirish tavsiya qilinadi.

Muhokama-inshoda qoidaga binoan, kirish so‘zlar va kirish birikmalar nisbatan ko‘p qo‘llaniladi. Ularning asosiy gapdan vergullar orqali ajratilishiga e’tiborni qaratish uqtiriladi.

Inshoda takrorlardan me’yordan ortiq foydalanish katta xato hisoblanadi. Bu xato inshoni ovoz chiqarib o‘qiganda yaqqol seziladi.

O‘quvchiga yana quyidagilar qiziq ko‘rinadi:

*insho bayondan nimasi bilan farq qiladi?

*insho qanday yoziladi?

*esse inshodan qanday farq qiladi?

*esse qanday yoziladi?

*hikoya inshodan nimasi bilan farq qiladi?

Insho yozishning hech qiyin tomoni yo‘q, asosiysi – o‘quvchida o‘ziga yaqin va qiziqarli mavzuni tanlay bilish qobiliyatining rivojlangan darajada bo‘lishi sanaladi. Insho mavzulari maktab dasturidagi adabiy asarlar yoki umuminsoniy qadriyatlar haqida bo‘lishi buzilmas qoidaga aylangan. Har kim o‘ziga yoqqan mavzuni tanlashi mumkin. Insho yozma tafakkur va bilimlarga, shaxsiy tahlil, tajriba va hissiyotlarga asoslangan shaxsiy fikrni yozma tarzda ifodalashni nazarda tutadi.

1.3. Insho mavzusi va uni yoritish uslubiyati

Insho ijodiy ishning eng yuqori shakli bo'lib, maktabda alohida o'rin tutadi; barcha nutqqa oid mashqlar ma'lum mazmunda inshoga bo'ysunadi.

Insho 1-sinfda kichik og'zaki axborot va emotsional hikoyadan boshlanib, o'z fikrini ifodalashga, o'quvchi shaxsining tashkil topishiga xizmat qiladigan, ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan jiddiy rejali aqliy ishga aylanadi.

Insho shaxsni shakllantirishda foydali vosita bo'lib, his-hayajon uyg'otadi, aqliy mustaqillikka, fikrlashga, ko'rgan-kechirganlari va o'zlashtirganlarini baholashga o'rgatadi; kuzatuvchanlikni o'stiradi, voqea-hodisalar o'rtasidagi sabab-natija bog'lanishni topishga, ularni qiyoslashga, xulosa chiqarishga o'rgatadi. Insho fikrni tartibga soladi, o'quvchilarda o'ziga, o'z kuchi va imkoniyatiga ishonch tug'diradi.

“Insho” asli arabcha so'z bo'lib, ma'nosi *“”yaratish”, “”bino qilish”, “”boshlash”* demakdir. Bu co'zning ma'nosi hozirda ancha torayib, asosan, o'quvchi va talabalar tomonidan yoziladigan ijodiy yozma ish ma'nosida qo'llanadi.

Insho - ijodiy ish: o'quvchidan faollik, qiziqish, fikr bildirishni talab qiladi. Material tayyorlash, uni tartibga solish, insho kompozitsiyasi va rejasi haqida o'ylash, logik bog'lanishni belgilash, so'z, so'z birikmasini tanlash, gap tuzish va uni o'zaro bog'lash, imloni tekshirish kabi barcha murakkab ishlar o'quvchidan aqliy kuchini to'la ishga solish bilan birga, o'z ma'naviy faoliyatini boshqarish ko'nikmasini ham talab etadi.

Inshoda til nazariyasi nutq tajribasi bilan qo'shiladi. O'quvchi inshoni, u mustaqil, ijodiy xarakterda bo'lgani, «o'ziniki»ni yozgani uchun ham sevadi.

Maktab rivojining barcha bosqichlarida bolalarning mustaqil tuzgan hikoyasi - inshoga alohida ahamiyat berilgan. Maktablar yangi, o'quvchilar nutqini o'stirish, aqliy, ijodiy o'sishiga mo'ljallangan dasturga o'tishi munosabati bilan uning ahamiyati yanada o'sdi.

Og'zaki va yozma inshoga o'rgatish jarayonida o'quvchilarda mavzuni tushunish va yoritish, o'z inshosini aniq fikrga bo'ysundirish, material to'plash, uni

tartibga solish va joylashtirish, reja tuzish va reja asosida yozish, mazmunga va nutq vaziyatiga mos ravishda til vositalaridan foydalanish, yozgan inshosini takomillashtirish ko'nikmalari hosil qilinadi. Bulardan tashqari, «texnik» vazifalar ham amalga oshiriladi, ya'ni matnni yozishda imloviy va husnixatga doir matnni abzastlarga bo'lish, xat boshidan yozish, hoshiyaga rioya qilish kabi talablarga ham amal qilinadi.

Og'zaki va yozma insho material manbaiga, mustaqillik darajasiga, tayyorlash usuli, janri va til xususiyatiga qarab tasnif qilinadi.

Insho material manbaiga ko'ra uchga bo'linadi: 1) o'quvchining o'zi ko'rgan-bilganlari, eshitganlari haqidagi, ya'ni mehnat, kuzatishlar, ekskursiyalar, o'yinlar, o'z tajribasi va boshqa jonli materiallar asosidagi insho; 2) kitob materiali, rasmlar, film, spektakl, o'qituvchi hikoyasi va boshqa manbalar asosidagi insho; 3) turli manbalar materialidan foydalaniladigan insho.

Mustaqillik darajasiga, tayyorgarlik ko'rish metodiga ko'ra insho ikki xil bo'ladi: 1) sinf o'quvchilari uchun umumiy bir mavzu asosida jamoaviy tayyorgarlikdan so'ng yoziladigan insho; 2) alohida mavzu asosida individual tayyorgarlikdan so'ng yoziladigan individual insho.

Janriga ko'ra hikoya, tasvir, muhokama tarzidagi inshoga bo'linadi. Boshlang'ich sinflarda tasvir va muhokama elementlari mavjud bo'lgan hikoya tarzidagi inshodan ko'proq foydalaniladi.

Inshoni tasnif qilish ta'limiy vazifalarni chuqur anglash va metodik vositalarni tanlashga, shuningdek, ish turlarini zaruriy yo'nalishda, baravar taqsimlashga yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda yozdiriladigan inshoning muhim turlaridan biri kichik yoshdagi o'quvchilarning shaxsiy hayotiy tajribasiga asoslangan inshodir.

Rasm asosidagi insho maktablarda tez-tez o'tkaziladi, chunki rasm bolalar nutqiy ijodini, tasavvurini boyitishga xizmat qiladi. Rasm bolalar sezgisiga ta'sir etadi, hayotning bola tajribasida hali uchramagan tomonlarini ochadi. Rasm o'quvchilarga tanish bo'lgan hodisalarni chuqur anglashga ham yordam beradi.

Rasm asosidagi inshoning uch asosiy turi bor: 1) rasmlar seriyasi yoki rasmi reja asosida yoziladigan hikoya tarzidagi insho; 2) sujetli, o'quvchilarni o'ylashga, faraz qilishga undaydigan bir rasm asosida yoziladigan hikoya tarzidagi insho; 3) rasmni tasvirlash (tasviriy insho). O'quvchilar avval rasmlar seriyasi asosida, so'ng bir rasm asosida, undan so'ng tasviriy insho yozish (rasmni tasvirlash)ga o'rgatiladi.

Dasturga ko'ra, 1-sinf o'quvchilari o'yinlari, mehnatlari, voqea-hodisalar haqidagi taassurotlari asosida o'qituvchi rahbarligida hikoya tuzishlari va uni ma'lum tayyorgarlikdan so'ng yozishlari; 2 - sinfda rasmlar seriyasi asosida kichik hikoya tuzish va uni jamoa tarzda tuzilgan reja asosida yozish; tabiatni kuzatish va mehnat jarayoni haqida, bolalarning o'yinlari, ishlari, sayillari haqida, avval o'qituvchi rahbarligida, keyin mustaqil ravishda kichik hikoya tuzish va uni yozish, shaxsiy ishlari haqida xat yoza olish; 3 - sinfda rasmlar (bir mavzuga oid bir necha rasm, syujetli bir rasm, rasmni tasvirlash) asosida, hayotiy tajribalari, kuzatishlari, ekskursiyalardan olgan taassurotlari asosida rejani, avval kollektiv ravishda, keyin mustaqil tuzib hikoya qilish va uni yozish talab etiladi.

Boshlang'ich sinflarda insho ta'limiy xarakterda bo'ladi, 3- sinfdagina tekshiruv insho o'tkazish mumkin. Rag'batlantirish maqsadida ta'limiy insholar ham baholanadi, lekin salbiy baho qo'yish tavsiya etilmaydi.

Boshlang'ich sinflarda yozma inshoga nisbatan og'zaki insho ko'p o'tkaziladi. Og'zaki hikoya tuzish bola maktabga kelgan birinchi kunlardan oq boshlanadi, yozma insho esa 1-sinf oxiri va 2-sinfdan boshlab o'tkaziladi.

2-bob. Boshlang'ich sinf “O'qish kitobi” darsligida berilgan tabiat mavzusidagi matnlar asosida insho tashkil etish.

2.1. Tabiat mavzusidagi insholarni tashkil etish

Boshlang'ich sinflarda yoziladigan inshoning muhim turlaridan biri kichik yoshdagi o'quvchilarning shaxsiy hayoti tajribasiga asoslanib yoziladigan insho.

Mening mavzuyim “Tabiat to'g'risidagi insholarni tashkil etish”. Bu mavzuni boshlang'ich sinf o'quvchilarga qanday tushuntiraman, ya'ni qanday mavzuni yoritib beraman. Avval inshoning o'zi nima va uning turlari haqida gapiraman.

Aziz, bolajonlar, insho deb biz va siz ko'rgan-kechirgan va eshitgan voqealarni yoki biron bir mavzuni olib shu mavzu asosda o'z fikrimizni chiroyli, bexato qilib daftarimizga yoritib yozishimizga aytiladi. Misol uchun men biror bir mavzu aytaman shu mavzuni birgalikda muhokama qilamiz va shu mavzuga oid qisqa-qisqa gaplar tuzamiz. Bu fikrlarni birlashtirib daftarimizga yozamiz. Mavzuni yoritish uchun men sizlarga rejalar tuzib beraman, ya'ni bu sizlarga yo'nalish bo'ladi. Agar 3-4 sinf o'quvchilari bo'lsa o'zlari mustaqil reja tuza olishlariga imkon beraman. Mening mavzuyim “Tabiat to'g'risidagi insholarni tashkil etish” bo'lgani sababli “Chiroyli bahor”, “Tabiatdagi o'zgaruvishlar” va shunga o'xshash mavzular olib yuqoridagidek insho yozishga o'rgataman. Bunday inshoni og'zaki va yozma tarzda olish mumkin. Bunday insho turiga o'quvchilar eshitganlarini, o'zlari tasavvur etganlarini va ko'z oldiga keltirgan voqealarni daftariga yoritib kengaytirib yozadilar. Bunday mavzudagi insholarni boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'rgatishda rasmlar va plakatlardan foydalanaman.

Biz bilamizki, maktabda rasm asosidagi insholar tez-tez o'tkaziladi, chunki rasm bolalar nutqiy ijodiy tasavvurini boyitishga xizmat qiladi.

Rasm bolalar sezgisiga ta'sir etadi. Rasm o'quvchilarga tanish bo'lgan hodisalarni chuqur anglashga ham yordam beradi. Rasm asosida insholarning uch asosiy turi bor:

1) Rasmlar seriyasi yoki rasmi reja asosida yoziladigan hikoya tarzidagi insho. Inshoning bu turida mavzuga oid rasm doskaga o'rnatiladi va shu rasm asosda reja tuzib insho yoziladi. Rasmda tasvirlanmagan narsa, voqea, hodisalarni har bir o'quvchi o'zi qo'shib kengaytirib yozadi. Tuzilgan rejalar albatta shu rasmgada tasvirlangan hodisalarga mos kelishi kerak.

2) Syujetli, o'quvchini o'ylashga, faraz qilishga undaydigan bir rasm asosida yoziladigan hikoya tarzidagi insho. Bu turdagi insholar uchun men tabiat manzaralari tasvirlangan rasmlarni o'quvchilarga ko'rsataman. Rasm asosida o'quvchilarga bir qancha savolar beraman. Rasm asosida o'quvchilar o'zlari ham bu manzarada ishtirok etishganday bo'lishlarini ta'minlayman. Hikoyalarda turli xildagi obrazlarni yaratishadilar.

3) Rasmni tasvirlash (tasviriy). Bunday insho turida mavzuga oid biror rasm ko'rsatiladi. O'quvchilar rasmni kuzatishadilar va rasmdan tashqariga chiqmagan holda insho yozishga kirishadilar. O'quvchilar o'zlaridan hech qanday qo'shimcha fikr qo'shib yozmaydilar. Rasm qanday bo'lsa, shundayligicha tariff berish aytiladi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslariga qo'yilgan muhim talablardan biri o'quvchilar bilimini shakllantirish borasida ularning qobiliyatlarini o'stirish ustida ishlash bilimlarni ongli bo'lishiga erishish, o'quvchilarga har bir ishni o'ylab bajarishga odatlantirishdir.

Maktabda amaliy ishlarning ahamiyati o'quvchilar tomonidan to'g'ri baholansa-da, o'quvchilarning nazariy bilimlaridan amalda foydalanishga qiynaladilar. Yozma ishlarni bajarishda grammatika qoidalaridan kam foydalanadilar. Aslida esa imlo savodxonlikni oshirish uchun ko'chirib yozish va amaliy mashqlar muhim o'rin tutadi.

Psixologik tadqiqodlardan ma'lum bo'lishicha, imlo savodxonlik asta-sekinlik bilan shakllanadi. Amaliy ishlardan qoidaga o'tishda ham o'zlashtirish jarayoni sekinlik bilan kechadi. Dastlab o'qituvchi rahbarligida og'zaki muhokama qilinadi. Asta-sekin o'quvchilar o'ylab, mulohaza qilib

anglay boshlaydilar. Barcha yozuv darslarida o'quvchilarga to'g'ri yozish qoidalarini ta'kidlab turish va amaliy ishlarni bajarish orqali ularning imlo savodxonliklarini oshirish mumkin.

Barcha ona tili darslarida o'quvchilar bilishini va malaka qobiliyatlarini takomillashtirish maqsadida oldin o'tilgan darslarni takrorlashga vaqt ajratiladi. Takrorlash bilimlarni aniqlashga, hisobga olish va shu bilan bir vaqtda mustahkamlashga yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda oldin o'tilganlarni takrorlash bilan bir vaqtda va takrorlash jarayonida oz-ozdan yangi bilimlar berib boriladi. Takrorlash orqali o'quvchilar o'z bilimlarini tartibga soladilar, mustahkamlaydilar.

Ilg'or tajribali o'qituvchilar darslarni tashkil etishda oldin o'tilganlarni mustahkamlash, yangi bilimlarni o'zlashtirish bilan bir vaqtda keyingi darsda o'rganiladigan mavzu uchun zamin tayyorlaydilar.

Hozirgi zamon darsi shundan iboratki, o'quvchi, tinglovchi, o'qituvchi esa ma'ruzachi bo'lib qolmasligi kerak. Balki o'qituvchi darsni kuzatib tartibga soluvchi rejissorga aylanmog'i lozim. O'qituvchi darsni shunday tashkil etishi kerakki, hamma o'quvchi shu mavzu yuzasidan mustaqil fikr yuritsin, o'z fikrini ayta olsin, kamchiligi bo'lsa o'rtoqlari va o'qituvchi javobidan kelib chiqib to'g'rilay olsin. Darsning xarakter xususiyatiga qarab dars interfaol usulda bo'lishiga erishishi lozim. Hozirgi kunda darslarni integratsion usulda o'tish orqali samarali natijaga erishish mumkinligi kuzatilib borilmoqda. Ma'lumki, boshlang'ich sinf ona tili darsligining adabiy til meyorida amaliy o'zlashtirishlarga yordam berishdir. Darslikning asosiy qismini xilma-xil mashqlar tashkil etadi.

Masalan, K.Qosimova, S.Fuzailov va A.Ne'matova muallifligidagi 2-sinf ona tili darsligi 1-sinfda o'tilganlarni takrorlashdan boshlanadi. Bunda gap va so'z haqidagi bilimlar takrorlanib mustahkamlanadi va asta-sekin navbatdagi bilimlar berib boriladi. 2014-yilda to'ldirilgan nashrning muqovasida ikkita o'quvchining maktab tomon ketayotgan rasmi berilgan. Bu rasm o'quvchilarning shu darslikka qiziqishini oshiradi. Mashqlarda uyga

vazifa va o'ylab ko'rish uchun berilgan mashqlarga alohida belgi qo'yilgani juda ma'qul. Ayniqsa kitobning sahifalari did bilan jihozlangan. Berilgan rasmlar aniq, chiroyli qilib chizilgan. Qoidalar aniq, tushunarli qilib chiziqalar ichida berilgan. Darslik ohirida lug'at berilgan bo'lib jarangli va jarrangsiz undoshlar aniq ajratib ko'rsatilgan. Darslik foydalanishga loyiq.

S.Fuzailov va M.Xudayberganovalar tomonidan 2014-yilda nashr etilgan 7-nashri ham 3-sinf o'quvchilari uchun juda mos tayyorlangan. Muqovadagi tanlangan rasmlar va bobomiz A.Navoiyning yodgorliklari va o'g'itlari juda o'rinli berilgan. Darslik sahifalari ham sifatli qog'oz va ranglar asosida yaratilgan. Darslikning 3- sahifasida Mustaqillik maydoni rasmini berilishi o'quvchilarni o'z vataniga, xalqiga, prezidentiga sadoqat ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, darslik sahifalariga ishlangan rasmlar ham juda o'rinli, aniq qilib berilgan. Qoidalar ham chiziqalar ichida alohida rang bilan berilgan. Bu ham o'quvchilarni ona tilidan grammatik qoidalarni tez va puxta o'zlashtirib olishlarida alohida ahamiyat kasb etadi.

2.2.O'quvchilarni tarbiyalashda inshoning ahamiyati.

Inshoning tarbiyaviy ahamiyati tanlanadigan mavzuga, shuningdek, insho ustida o'quvchilar qanchalik mustaqil ishlashi va qiziqishiga, insho g'oyasiga ham bog'liq.

Insho bolalarni voqea-hodisalarni chuqur his etishga yordam beradi, izchil fikrlashga o'rgatadi, tilga va adabiy ijodga qiziqishlarini o'stiradi. Bolalar eng qiziqarli va o'zlariga yaqin voqea-hodisalar haqida hikoya qiladilar va yozadilar, ularning inshosi mustaqil ishlash malakasini o'stiradi, ommaviy faollikni oshiradi.

Tanlangan mavzuning g'oyaviy yo'nalishini ochish tarbiyaviy vazifani hal qilishga imkon beradi. Bu jihatdan mehnat, mehnat qahramonlari haqidagi, bolalarning hayoti, maktab, tug'ilib o'sgan qishlog'i yoki shahri haqidagi, urush qahramonlari haqidagi mavzular ayniqsa qulay. Bu mavzulardagi insholar mehnat kishilariga, qahramonlarga chuqur hurmatni tarbiyalaydi.

Insho jamiyat hayotini tushunishga o'rgatadi. Tabiatga, kishilarga, ularning yaxshilikka intilishlari va harakatlariga, mehnatga va mehnat mahsuliga muhabbatni tarbiyalaydi, kishilar xatti-harakatidagi chiroyli jihatlarni egallashga, hozirgi zamon axloqiy talablarini anglashda bolalarga yordam beradi.

Inshoning tarbiyaviy ahamiyatini oshirish uchun quyidagilarga rioya qilish talab etiladi:

1. Osondan qiyinga tamoyiliga rioya qilgan holda og'zaki va yozma inshoni muntazam o'tkazib borish bilan o'quvchilarda mustaqillikni tarbiyalash. Mustaqil insho o'quvchilar faolligini o'stiradi.

2. Inshoni hayot bilan bog'lash. Bunda kuzatishlar asosidagi insho, kundalik yuritish, qilingan ishlar yuzasidan «hisobot» tarzidagi insho, xat, maqola, o'qilgan kitob haqida taqriz kabilarning tarbiyaviy ahamiyati juda katta.

3. Insho uchun maktab va o'qituvchining tarbiyaviy vazifalariga mos bo'lgan mavzu tanlash. Bunday mavzularga mehnat haqidagi, kishilarning maqtovga loyiq ishlari haqidagi, axloqiy muammolar, Vatan haqidagi mavzular

kiradi. Mavzuni o'qituvchi maktab sharoiti va o'z sinfi o'quvchilarining xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlaydi.

4. Insho ustida ishlashda ishning emotsionallik darajasini- ta'sirini oshirish. Tabiatni obrazli, emotsional tasvirlash, qahramonlikni yoki foydali harakatni qiziqarli, ta'sirchan qilib tasvirlash.

Vatan so'zida kishining bolalikda o'sib-ulg'aygan joyi tasviri ko'z oldiga keladi. Ishlab chiqarishga ekskursiya materiali asosida mehnat haqidagi insho yangi tarbiyaviy imkoniyatlarni ochib beradi: unda bolalar ishlab chiqarishdagi muvaffaqiyat va qiyinchiliklar, ilg'or kishilar haqidagi, kasb va mutaxassislik haqidagi, texnika haqidagi ma'lumotlardan foydalanadilar. Ishlab chiqarishga ekskursiya va mehnatni tasvirlash bilan bog'liq holda kasb haqida suhbatlashishga to'g'ri keladi va bu inshoda o'z aksini topadi. Mehnat haqidagi insho gazetaga maqola shaklida yozilishi mumkin. Mehnat yoki ishlab chiqarish haqidagi insho mavzulariga «Bizning qishloq», «Karam uzish», «Bog'da», «Bizning jamoa xo'jaligimiz», «Pochtada», «Do'konda», «Paxtakorlarga yordamimiz», «Bizning hashar», «Maktab yer uchastkasida», «Daraxt o'tqazish» kabilar kiradi. «Men nimalarni bilaman» mavzusidagi tanlovga bolalar juda qiziqadilar. Tanlov bolalarning mehnat ko'nikmalarini aniqlabgina qolmay, ularni uyda, polizda, bog'da ishlashga rag'batlantiradi. Maqsad kishilarga foyda keltiruvchi mehnatga hurmatni tarbiyalashdir. Qishloq maktab o'quvchilari ota-onalariga sabzavotlar ekish, hosilni yig'ish, o'tin tayyorlash kabi ishlarda qanday yordamlashganliklari haqida yozadilar. Sinfda mehnat haqidagi insho muhokama qilinadi. Bolalar foydali, zaruriy ijtimoiy faoliyat sifatida mehnatning mohiyatini tushuntiradilar. Ular har qanday mehnat e'zozlanishini aytadilar.

Kelajak haqida «Kim bo'lishni xohlayman?» mavzusida tayyorgarliksiz hikoya qilish tarzidagi insho ham katta tarbiyaviy kuchga ega.

Juda yaxshi yozilgan inshoni sinfda ifodali o'qib berish va tahlil qilish bolalarni tarbiyalaydi. Ba'zi maktablarda bolalar inshosi va hatto bolalar she'rlari to'plami tuziladi, yaxshi yozilgan hikoya uchun tanlov e'lon qilinadi.

Insho mavzusi va uni yoritish. Mavzu insho predmeti bo'lib, uning mazmunini tashkil etadi. Mavzuga qarab inshoda aks ettiriladigan materiallar, dalillar, hodisalar tanlanadi. Inshoning to'g'ri va to'liq bo'lishi o'qituvchi mavzuni qanday shakllantirishi, o'quvchilar uni qanday tushunishlariga bog'liq.

Insho ustida ishlashda mavzu tanlash, uni rejalashtirishda esa og'zaki va yozma insho mavzusini belgilab olish muhim rol o'ynaydi.

O'quvchilar mavzuni yoritishga 1-sinfdan boshlab o'rganadilar. Ular mavzuga oid gap tuzadilar. Masalan, qish havosi haqida, ona qishlog'i (shahri) haqida, qo'rqqoq quyon, ayyor tulki haqida gap tuzadilar. Keyin savollar asosida bir mavzuga oid bir necha gap tuzib, uni yozadilar. Insho uchun iloji boricha tor - aniq chegaralash mumkin bo'lgan mavzuni tavsiya qilish foydali. «Kuz» mavzusi o'quvchilar uchun juda keng mavzu bo'lib, bunda o'quvchi umuman kuz haqida, kuzda qilinadigan ishlar haqida yozishi mumkin, u yozadi - gaplarining aniq chegarasini bilmaydi. O'quvchilarga kuzga oid «Paxta terimiga yordam», «Kuz kunlarining birida», «Oktyabrda ob-havo», «Bog'da olma terdik», «Pomidor terishga yordamlashdik», «Kech kuzda bog' manzarasi» kabi mavzularni tavsiya qilish mumkin.

Og'zaki va yozma insho ustida ishlashda mavzu berib uni yoritishni talab qilishdan tashqari, avval material to'plash va shu yig'ilgan materiallar asosida mavzuni shakllantirishni tavsiya qilish ham mumkin. Masalan, kech kuzda tabiatni kuzatish va material yig'ish tavsiya qilinadi: kuzatishlar «Kech kuzda» mavzusida insho yozish bilan yakunlanadi. Bunda o'quvchilar mavzuni to'liq yoritadilar.

Reja tuzish. Reja har qanday og'zaki yoki yozma hikoya qilishning zaruriy pog'onasi, uning «loyihasi»dir. Kishi o'z nutqi haqida o'ylab, asosiy gaplarini belgilab oladi. Insho uchun reja tuzish shuning uchun ham zarur. 1 - sinfdan reja rolini o'qituvchi savollari, ya'ni so'roq gaplar tarzidagi reja bajaradi; 2 - sinfdan reja jamoa o'qituvchi rahbarligida tuziladi; 3 - sinfdan esa mustaqil tuziladi. Boshlang'ich sinflarda 3 - 5 talik reja tavsiya qilinadi.

Bolalar avval o'qigan hikoyalariga reja tuzadilar va uni reja asosida qayta hikoya qiladilar, keyin insho rejasini tuzadilar, so'ng bir mavzuga oid bir necha

rasm (rasmlar seriyasi) asosidagi insho rejasini, ya'ni rasmlari tuzadilar, inshoga sarlavha topadilar. Shundan so'ng tasvirlangan voqea-harakatlar aniq ajratilgan, reja tuzishga qulay bo'lgan rasm yoki kuzatishlar asosida yoziladigan insho rejasini tuzishga o'tiladi. Reja tuzishga o'rgatishda oldin nima haqida to'xtalish, keyin uni qanday davom ettirish, undan so'ng nima haqda aytish, nihoyat, hikoyani qanday tugatish kerakligini o'quvchilarga tushuntirish foydali usul hisoblanadi. Reja avval so'roq gap tarzida, keyin darak gap, oxiri nominativ gap tarzida tuziladi.

Reja ko'pincha insho yozishdan oldin unga tayyorlanish jarayonida (rasm asosida yoziladigan insho rejasini kabi) tuziladi. Ba'zan rejani ekskursiya, kuzatishdan oldin, unga tayyorgarlik jarayonida tuzish maqsadga muvofiq. Ekskursiya, kuzatish, ijtimoiy foydali mehnat rejasini shu ishlar bajarilishidan oldin yoki ular yuzasidan material to'plash, insho uchun material tanlash va uni tartibga solish jarayonida tuziladi. Bunday reja insho yozishdan oldin ko'rib chiqilib, unga ayrim aniqliklar kiritiladi.

Inshoni yozishga tayyorlash. Og'zaki yoki yozma inshoning turi va vazifasiga qarab unga tayyorgarlik ko'riladi.

Inshoga tayyorgarlikni o'qituvchi boshqaradi, bunga o'quvchilarni ishtirok ettiradi, ularning o'ta faolligi va mustaqilligiga erishadi. Tayyorlik deganda, birinchidan, o'quvchilarda nimanidir tasvirlashga, hikoya qilishga talab uyg'otadigan vaziyat yaratish; ikkinchidan, insho uchun yetarli bo'lgan zarur material yig'ish; uchinchidan, mavzuga oid, uni yoritishga mos bo'lgan til vositalarini tanlash tushuniladi.

Inshoga tayyorlik inshoni yozishdan bir necha kun ilgari boshlanadi, darsdan tashqari vaqtlarda va boshqa darslar jarayonida ham olib boriladi. Og'zaki yoki yozma insho ustida ishlash uch bosqichga bo'linadi:

1) material yig'ish, ya'ni kuzatish, ekskursiya, mehnat jarayoni, rasmni ko'rib chiqish, kinofilm, spektaklni ko'rish, badiiy va boshqa adabiyotlarni o'qish;

2) mavzuga va uni yoritishga mos material tanlash, uni tartibga solish, joylashtirish, ya'ni suhbat, muhokama qilish, zarur materialni ajratish, reja tuzish, lug'at ustida ishlash, imlo va leksik tomondan tayyorlash va hokazo;

3) inshoni nutqiy shakllantirish, ya'ni insho matnini tuzish, uni yozish, takomillashtirish, xatolarni to'g'rilash va uni tekshirish.

Birinchi va ikkinchi bosqichdagi ishlar, odatda, darsdan tashqari vaqtda bajariladi. Masalan, ekskursiya asosidagi insho uchun material yig'ish uni yozishdan ancha ilgari boshlanadi; tabiat hodisalarini kuzatish bir hafta, hatto undan ko'proq davom etadi; rasmlar esa insho yozishdan oldin ko'riladi. Shunday qilib, insho yozish yoki og'zaki hikoya qilish darsi ilgari bajarilgan ishlarning yakunidir. Insho darsining umumlashtiruvchilik roli bog'lanishli nutq sohasidagi ko'nikmalarni egallash me'yoriga qarab ortib boradi.

Insho darsining qurilishi tayyorlov bosqichining xarakteriga bog'liq. Tayyorlov bosqichida qancha ko'p ishlansa, insho darsida matn ustida shuncha chuqur ishlash imkoniyati yaratiladi. Insho yozishdan oldin yoki og'zaki hikoyalashda yig'ilgan materiallarni o'quvchilar yodiga tushirish, ularda qiziqish uyg'otish, yozishga yoki hikoya qilishga xohish uyg'otish zarur.

Insho yozish uchun 2- sinfda odatda bir dars, zarur bo'lib qolsa, ikkinchi darsdan 15-20 minut, 3-sinfda bir yoki bir yarim dars, ayrim vaqtlarda ikki darsgacha ajratiladi. Bulardan tashqari, insho tahlili va xatolar ustida ishlash uchun 20-25 minut vaqt ajratiladi. Bunda eng yaxshi yozilgan insholar tahlil qilinadi, imloviy, punktuastion, nutqiy, logik xatolar va mazmundagi yetishmovchiliklar ustida ishlanadi.

Insho yozish darsida quyidagi bosqichlarga rioya qilinadi: 1) mavzuni, inshoning vazifasini e'lon qilish (yoki yodga tushirish), uni o'quvchilar bilan muhokama qilish; 2) kuzatish davrida to'plangan materialni tartibga solish yoki material yig'ish (masalan, rasmga qarab insho yozish uchun rasmni ko'rish) maqsadida suhbat o'tkazish; 3) reja tuzish yoki avval tuzilgan rejaga aniqlik kiritish; 4) matnni nutqiy tayyorlash, ya'ni zarur so'zlarni yozish; so'z birikmasi, gap yoki bog'lanishli matnning ayrim qismini tuzish; imlosi qiyin so'zlarning

yozilishini tushuntirish va boshqalar; 5) darsning asosiy qismi bo'lgan inshoni yozish; o'quvchilar inshoni yozayotganlarida, o'qituvchi ular ishini kuzatadi, ayrim o'quvchilarga (boshqalarga xalaqit bermay, ular e'tiborini chalg'itmay) individual yordam beradi; 6) o'quvchilar yozgan insholarini tekshiradilar, kamchiliklarini to'ldirib, xatolarini to'g'rilaydilar.

Boshlang'ich sinflarda bolalar inshoni oqqa ko'chirmaydilar, kerakli tuzatishlarni ehtiyotlik bilan kiritadilar, bunday tuzatishlar uchun insho bahosi pasaytirilmaydi, aksincha, matni yaxshi to'g'rilagan o'quvchi rag'batlantiriladi; 7) bolalar inshoni o'qituvchiga tekshirish uchun topshiradilar; o'qituvchi ikki kun ichida tekshiradi.

Keyingi ona tili darsining ikkinchi qismidan 15-25 minut vaqt ajratib, tekshirilgan insholar yuzasidan yakuniy mashg'ulot o'tkaziladi (insho tahlil qilinib, xatolar ustida ishlanadi).

O'qituvchi har bir insho turi uchun o'quv vazifasini belgilab oladi. Masalan, rasmlar seriyasi asosida birinchi marta yozdiriladigan insho uchun quyidagi vazifalar belgilab olinadi:

1. O'quvchilarni inshoning yangi turi bo'lgan rasmlar seriyasi asosidagi insho bilan tanishtirish.
2. Rasmlar asosida matn rejasini tuzish.
3. Reja qismlariga mos ravishda matn abzastlarga bo'lish va har birini xat boshidan yozish.
4. Insho matnini mustaqil tekshirish va takomillashtirish.

O'quvchilarning mustaqillik darajasi o'sib borgan sayin, inshoga talab ham orta boradi.

2.3. Boshlang'ich sinflarda tabiat tasviri bilan bog'liq insholarni tashkil etish usullari.

Insho-ijodiy ish bo'lib, u o'quvchilardan faollik, qiziqish, fikr bildirishni talab qiladi. Material tayyorlash, uni tartibga solish, insho kompozitsiyasi va rejasi haqida o'ylash, mantiqiy bog'lanishni belgilash, so'z, so'z birikmasini tanlash, mantiqiy bog'lanishni gap tuzish va uni o'zaro bog'lash, imloni tekshirish kabi barcha murakkab ishlar o'quvchidan aqliy kuchini to'la ishga solish bilan birga, o'z ma'naviy faoliyatini boshqarish ko'nikmasini ham talab etadi.

Insho ijodiy ishning eng yuqori shakli bo'lib, maktabda alohida o'rin tutadi; barcha nutqqa oid mashqlar ma'lum mazmunda inshoga buysunadi.

Insho 1-sinfda kichik og'zaki axborot va ehtirosli hikoyadan boshlanib, o'z fikrini ifodalashga, o'quvchi shaxsining tashkil topishiga xizmat qiladigan, ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan jiddiy rejali aqliy ishga aylanadi.

Insho o'quvchi shaxsini shakllantirishda foydali vosita bo'lib, his-hayajon uyg'otadi, aqliy mustaqillikka, fikrlashga, ko'rgan-kechirganlari va o'zlashtirganlarini baholashga, kuzatuvchanlikka, voqea-hodisalar o'rtasidagi sabab-natija bog'lanishni topishga, ularni qiyoslashga, xulosa chiqarishga orgatadi. Insho fikrini tartibga soladi, o'quvchilarda o'ziga, o'z kuchi va imkoniyatiga ishonch to'g'iradi.

"Insho" asli arabcha so'z bo'lib, ma'nosi "yaratish", "bino qilish", "baholash" demakdir. Bu so'zning ma'nosi hozirda ancha torayib, asosa, o'quvchi va talabalar tomonidan yoziladigan ijodiy yozma ish ma'nosida qo'llaniladi.

Inshoga tayyorgarlikni o'qituvchi boshqaradi, bunga o'quvchilarni ishtirok ettiradi, ularning o'ta faolligi va mustaqilligiga erishadi. Tayyorgarlik deganda, birinchidan, o'quvchilarda nimadir tasvirlashga, hikoya qilishga talab uyg'otadigan vaziyat yaratish; ikkinchidan, insho uchun yetarli bo'lgan zarur material yig'ish; uchunchidan, mavzuga oid, uni yoritishga xos bo'lgan til vositalarini tanlash tushuniladi.

Inshoga tayyorgarlik inshoni yozishdan bir necha kun ilgari boshlanadi, darsdan tashqari vaqtlarda va boshqa darslar jarayonida ham olib boriladi.

Insho yozish uchun 2-sinfda odatda bir dars, zarur bo'lib qolsa, ikkinchi darsdan 15-20 daqiqa, 3-4 sinflarda bir yoki bir yarim dars, ayrim vaqtlarda ikki darsgacha ajratiladi. Bulardan tashqari, insho tahlili va xatolar ustida ishlash uchun 20-25 daqiqa vaqt ajratiladi. Bunda eng yaxshi yozilgan insholar tahlil qilinadi, imloviy, punktuatsion, nutqiy, mantiqiy xatolar va mazmundagi yetishmovchiliklar ustida ishlanadi.

Insho yozish darsida quyidagi bosqichlarga rioya qilinadi:

- 1) Mavzuni, inshoning vazifasini e'lon qilish (yoki yodga tushurish) uni o'quvchilar bilan muhokama qilish;
- 2) Kuzatish davrida to'plangan materialni tartibga solish yoki material yig'ish (masalan, rasmga qarab insho yozish uchun rasmni ko'rish) maqsadida suhbat o'tkazish;
- 3) Reja tuzish yoki avval tuzilgan rejaga aniqlik kiritish;
- 4) Matnni nutqiy tayyorlash, ya'ni zarur so'zlarni yozish, so'z birikmasi, gap yoki bog'lanishli matnning ayrim qismini tuzish, imlosi qiyin so'zlarning yozilishini tushuntirish va boshqalar;
- 5) O'quvchilar inshoni o'qituvchiga tekshirish uchun topshiradilar, o'qituvchi ikki kun ichida tekshiradi.

Ma'lumki, turli mavzularda ishlangan mazmunli rasmlar bolalarning narsa va voqea-hodisalar haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hosil qiladi va zehnlarni o'tkirlashga yordam beradi. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida rasm mazmunini hikoya qilishga o'rganadilar. Shuningdek, bu tadbir o'quvchilar lug'atini boyitadi, ifodali nutq malakalarini egallashlarida yordam beradi.

Rasm asosida og'zaki insho birinchi sinfda ko'p o'tkaziladi. O'quvchilarga dastlab rasm ko'rsatilib, umumiy tushunchalari aniqlanadi. Keyin esa rasm mazmunini yuzasidan savollar berib, o'quvchilar javobi eshitiladi va o'qituvchi tomonidan to'ldirilib, qayta hikoya qildiriladi. Rasm asosidagi ishlar ata-sekin murakkablashtirilib, o'quvchilar rasm asosida mustaqil hikoya tuzishga o'rgatiladi. Demak rasm asosidagi ishlarning quyidagi turlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

- 1) Rasm asosida og'zaki hikoya tuzish;
- 2) O'qituvchining savoli asosida og'zaki hikoya tuzish;
- 3) O'qituvchining savoli asosida jamoa bo'lib insho tuzish, tuzilgan inshoni avval to'liq bayon etish, so'ngra insho matnini doskaga yozib, uni daftarga ko'chirib olish;

4) Berilgan so'zlardan foydalanib, insho yozish.

3-4 sinflarda bu ish turi birmuncha murakkablashadi:

- a) O'qituvchining savoli asosida mustaqil ravishda ikki-uch gapdan iborat insho yozish;
- b) Berilgan reja asosida mustaqil insho yozish;
- d) O'qituvchi yordamida jamoa bo'lib tuzilgan reja asosida insho yozish singari.

Rasm asosida o'tkaziladigan suhbat quyidagi tartibda olib boriladi:

- 1) Dastlabki suhbat. O'rganilayotgan mavzuning mazmuni va xarakteriga qarab dastlabki suhbat o'quvchilar o'yini va faoliyatlariga bog'lab tashkil etiladi. Rasmda tasvirlangan narsalar va voqea-hodisalarga o'quvchilar tajribasi taqqoslanadi. Aloqador bo'lgan she'r va ertaklar yoki hikoya eslatiladi;
- 2) Rasmini o'quvchilar mustaqil ko'rib chiqishlari. Rasm o'quvchilarga ko'rinarli qilib osib quyiladi. Ular mustaqil kuzatib, o'zaro fikr yuritadilar. O'quvchilar ko'proq nimalarga qiziqayotganliklariga qarab savol-javob o'tkaziladi;
- 3) Rasm mazmunini o'qituvchi yordamida tahlil qilish. Tahlil qilish uchun o'quvchilarga beriladigan savollar oldindan belgilab quyilishi lozim. Belgilangan savollar rasmdagi narsalar nomi, nima uchun kerakligi, sodir bo'layotgan voqea qaysi davrga oidligi singari masalalarni ochishga yordam berishi kerak;
- 4) Rasm mazmunini og'zaki hikoya qilish. Savol-javoblardan keyin o'quvchilarga rasm mazmunini gapirtiriladi. Unda o'quvchilarning talaffuz normalariga rioya qilishlariga, gap qurilishiga e'tibor berishlariga ham ahamiyat beriladi. O'quvchilar nutqidagi xatolar o'z o'rnida izohlab, tuzatib boriladi;
- 5) Insho va uni yozish. O'quvchilarning og'zaki hikoyalari eshitilib, muhokama qilingandan keyin, uni yozma ifodalash tushuntiriladi. O'quvchilar insho yozishga kirishganlaridan oldin qo'llash qiyin bo'lgan imlosi qiyin va notanish so'zlar ma'nosi izohlanadi. So'ng o'quvchilar mustaqil yozishga kirishadilar.

Rasm asosidagi insho maktablarda tez-tez o'tkaziladi, chunki rasm bolalar nutqiy ijodini, tasavvurini boyitishga xizmat qiladi. Rasm bolalar sezgisiga ta'sir etadi, hayotning bola tajribasida hali uchramagan tomonlarini ochadi. Rasm o'quvchilarga tanish bo'lgan hodisalarni chuqur anglashga ham yordam beradi.

Rasm asosidagi inshoning uch asosiy turi bor:

- 1) Rasmlar seriyasi yoki rasmiy reja asosida yoziladigan hikoya tarzidagi insho;
- 2) Syujetli, o'quvchini o'ylashga, faraz qilishga undaydigan bir rasm asosida yoziladigan hikoya tarzidagi insho;
- 3) Rasmni tasvirlash (tasviriy).

Boshlang'ich sinflarda insho ta'limiy xarakterda bo'ladi, 3-sinfdagina tekshiruv insho o'tkazish mumkin. Rag'batlantirish maqsadida ta'limiy insholar ham baholanadi.

Boshlang'ich sinflarda rasm asosida insholar yozdirish mening darsimda bo'ladigan bo'lsa, birinchi navbatda, mavzuni bola tarbiyasiga va Vatanga muhabbatini uyg'otadigan mavzulardan tanlash lozim. Unda o'quvchilar Vatan haqida bilimlarga ega bo'lishadi. Bu esa ularda odob-axloqning shakllanishiga zamin hozirlaydi. Men bu borada inshoning mavzusini "9-may Xotira va qadrlash kuni" deb tanlab olaman. Bunda o'quvchilar nega endi 9-may? Nima uchun bunday nomlangan? va yana shu kunga atalgan she'rlar, rivoyatlar borligi aytib o'tiladi. Bu esa bola ongiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi va chuqur mulohaza yuritishiga undaydi. Bu borada "To'maris", "Shiroq" afsonalari aytib berilib, ualrdagi Vataniga bo'lgan muhabbati uchun hech narsadan hattoki o'limdan qo'rqqmasligi aytib o'tiladi. To'marida erkaklarga xos bo'lgan mardlik hissi, Shiroqning esa qiyinchiliklarga dosh bergani aytilib o'tiladi. Bunig barchasi mana shu Ona Vatanimiz uchun ko'rsatgan jasoratlaridir.

Yana Xurshid Davronning "Xotira" haqida yozilgan she'rini ham o'qib berishim mumkin. Bu she'rda quyidagi misralar mavjud:

Xotira bor ekan,
Tirikdir millat,
Tirikdir iftixor,
Tirikdir g'urur.
Xotira- elni xalq qiluvchi qudrat
Xotira – ertani yoritguchi nur.
Hatto maysaning ham xotirasi bor
Maysa xotirasi – nurga intilmoq
Ko'karsa ikkiga bo'lib tashlaydi,
Yo'lining ustida hatto tursa tog'.
To quyosh osmonda porlab turarkan,
Osmonday mangusan, ey Ona xalqim!
Har bir fojiaga, har bir sharafga
Baho bermoqqa ham yolg'iz sen haqlim.

Prezidentimiz aytib o'tganidek, "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" iborasi ham keltirib o'tiladi. She'r tahlil qilinib, rasmlar o'quvchilarga ko'rsatiladi, inshoning rejaları tuzilib yoziladi.

2.4.O'quvchilar inshosini tahlil qilish

Nutq o'rtirish metodikasida o'quvchilar inshosi uchun baho me'yorlari muhim masala hisoblanadi. Tabiiyki, bunda yuqorida insho etilgan asosiy talablarga rioya qilinadi.

O'quvchilar inshosini baholashda quyidagilar hisobga olinadi:

1. Insho mavzusining yoritilishi (mazmun mavzuga mosmi, yetarli yoritilganmi?). Mazmun haqiqatga mos keladimi?
2. Reja, kompozitsiya, izchillik (reja to'g'ri tuzilganmi, materialni insho qilish tartibi rejaga mos keladimi, mazmunda takror yo'qmi, zarur o'rinlar tushib qolmaganmi, izchillik buzilmaganmi?). Asosiy fikr aniqmi, xulosa chiqarilganmi?

3. Janri, uslubi (hikoya tarzidagi matnda tasviriy va muhokama elementlari bormi; uslubda xatoga yo'l qo'yilmaganmi; insho mavzusi va vaziyatni yoritish vazifasini janr va uslub oqlay oladimi? Badiiylik elementlari bormi?)

4. Insho hajmi (so'z, gap soni; lakonizm yoki ko'p so'zlilik).

5. Leksika (so'zlardan to'g'ri foydalanish, sinonim, antonim, frazeologizmlardan foydalanish).

6. Sintaksis (gapning hajmi, sintaktik konstruktiviyalarning bir xil yoki har xilligi, murakkab konstruktiviyalar bormi?).

7. Imloviy va punktuatsion savodxonlik, xatolar xarakteri (qo'pol va juz'iy xatolar).

8. Husnixat, tashqi tomondan shakllantirish (hoshiyaga, xat boshidan yozishga, sarlavhani to'g'ri joylashtirishga rioya qilish).

O'quvchilar inshosiga qo'yilgan bunday talablar uni baholashga bir xilda yondashishga imkon beradi.

3-sinf darsligida berilgan bo'lim "Tabiatni seving va asrang" nomli mavzudagi bo'limni o'quvchilarga o'rgatishdan oldin tabiat, yer uni asrab avaylash to'g'risida ma'lumot berish, o'quvchilarning tabiat haqidagi tasavvurlari bilan tanishib, ular bilan hamsuhbatlikda suhbat o'tkaziladi.

Ushbu bo'limni o'rgatishda birinchi mavzu "Ona tabiat"ni she'rida ifodalanganday bo'lmasada o'quvchilarga tushuncha berish.

She'rning har bir satriga izoh berib, uni o'quvchilarga ifodali o'qishi o'rgatishga harakat qilaman. Bolalarni ushbu rasm orqali tabiat bilan tanishtirish lozim. Ushbu rasmda tasvirlangan rasimga o'quvchilar fikrini so'rayman. She'rning oxirida berilgan savollarga o'quvchilar bilan birga javob topaman. Shu orqali o'quvchilarga uyga vazifa qilib, "Ona tabiat" she'rini yodlab kelishni aytaman. Keyingi darsda esa o'quvchilarga "Yer sevarni – el sevar" mavzusi yuzasidan savol-javob uyushtiraman. Ushbu savol-javobda men o'quvchilarni ikki guruhga bo'laman. Tabiat bilan bog'liq turli savollarni berib o'quvchilarning javoblariga qarab ularga rag'bat kartochkalari bilan o'quvchilarni rag'batlantiraman.

Tabiatning ajoyib tuhfasini – Ona Yerimizdir. Yer jamiki boyliklarning, ne'matlarning onasi hisoblanadi.

Tabiatni sevish, uni asrash, yon-atrofni ko'kalamzorlashtirish, bog'-rog'larga aylantirish ham Ona Yerni sevish demakdir.

Ushbu matn o'quvchilar bilan birga ifodali o'qishga o'rganamiz.

Matnning oxirida berilgan savollarga o'quvchilar bilan birga javob topishga harakat qilamiz.

O'quvchilarga turli mevalardan namunalarni ko'rsatib, mana shu mevalarning barchasi mana shu Ona Yerimizda yetishtirilishini o'quvchilarga ta'kidlab o'taman. Keyingi mavzu "Suhbat" orqali o'quvchilarda xalqiga bo'lgan hurmatni, "Kattalarga hurmatda, kichiklarga izzatda bo'lish" kerakligini o'quvchilarga o'rgatishga harakat qilaman. O'quvchilarni bir-biri bilan o'rtoqlikda ishlashga, o'rtoqlari bilan birga eliga, yurtiga naif tegadigan farzand bo'lishlari lozimligini o'quvchilarga o'rgatish. O'zlarining o'z qilgan ishlari mamnun bo'lishlari uchun arziydimi? yoki yo'qligini, qanday ishlar butun xalqqa foyda olib kelishi haqida aytib o'taman.

Ushbu ertakni o'quvchilarga yanada tez va tushunarli bo'lishi uchun o'quvchilarni rollar, ya'ni tol va majnuntol bo'lishlarini so'rayman. Tolning va majnuntolning gaplarini bolalarga alohida-alohida aytishlarini so'rayman. Shu tariqa o'quvchilarning xotirasini sinab ham ko'raman.

Bundan keyin mavzuning yakunida keltirilgan "Elga xizmat – oliy himmat" maqolini o'quvchilar bilan birgalikda sharxlab o'taman. So'ngra o'quvchilarning erkin fikrlarini ham so'rab, ularning fikrlarini yanada kengaytiruvchi fikrlarini ham keltirib o'tib, uyga vazifa qilib esa ushbu matn ifodali o'qishni va savollarga javob yozib kelishlarini aytib o'taman. O'quvchilar bilan xayrlashib, ularga o'z uylariga ehtiyot bo'lgan holda ketishlarini aytaman.

Yangi kunda esa avval darsga kelgach, o'quvchilar bilan salomlashib, ular bilan ma'naviyat daqiqasini olib boraman. So'ngra o'quvchilardan uyga vazifani so'rayman. Uyga vazifalar baholanib bo'lingandan so'ng esa Qayum Tangriquliyevning "Non haqida" asarini yangi mavzu ekanligini aytib o'tgan holda yangi mavzu bayonini boshlayman.

Avvalo o'quvchilarning "Non"ga bo'lgan munosabatini aniqlab olaman. So'ng ularning tushunchalarni boyitish uchun xizmat qiladigan bir qancha ma'lumotlar keltirib o'taman. Matndagi Mayram bilan Mashhuraning suhbatlarini o'quvchilar orqali ko'rsatib beraman. Ushbu suhbatga mavzu qilib olingan nonning paydo bo'ladigan jarayonlar haqida o'quvchilarni tanishtirib o'tishga urinaman. Matndan ham shunga bog'liq bo'lgan qismini topib o'qishlariga o'rgataman.

Amaki qizlarni don ekiladigan dalaga olib bordi: keyin don saqlanadigan joyni ko'rsatdi. O'rim-yig'imdan so'ng kombayn, traktorlar ta'mirlanadigan ustaxonaga o'tishdi. Ustaxonadagi ishlarni ko'zdan kechirishdi. Endi amaki qizlarni novvoyxonaga (non zavodiga) olib bordi. Novvoyxonadagi mehnat bilan tanishdilar.

Shundan so'ng qizlar uylariga qaytdilar.

Don ekilib, dasturxonimizga non bo'lib qo'yilguncha qanchadan qancha odamlar mehnat qilishlarini ko'rdilar va nonni faqatgina ehtiyotlash emas, balki uni hurmat ham qilish kerakligini tushunib yetdilar.

Hikoyaning oxirida berilgan "Tog'arada shishadi, tandirda u pishadi" topishmog'iga o'quvchilar javob topishadi.

Keyin o'quvchilar matn oxirida keltirilgan:

1) Hikoyani kim yozgan, u nima haqida ekan?

2) Hikoya kimlar ishtirok etgan?

3) Nima uchun Mayram Mashhuradan uzr so'radi? kabi savollarga javob topishga harakat qilishadi.

Keyin ularga uyga vazifa qilib,

1) Mayramga baho bering. Berilgan bahoni ikki ustunga yozing.

2) hikoyaning mazmunini soʻzlang va undan xulosa chiqaring.

3) Hikoyani ifodali oʻqishni oʻrganing kabi topshiriqlar beriladi va dars yakunlanadi.

“Tabiatni seving va asrang” boʻlimida berilgan keyingi mavzu “Soy suvi haqida ertak” yuzasidan dars boshlanadi. Soy suvi haqida oʻqituvchi tomonidan oʻquvchilarga maʼlumot beriladi. Soyg suv qayerdan kelib quyilishini oʻquvchilarga tushuntirish. Matnni ifodali oʻquvchilar bilan birga oʻqish aytiladi. Soʻngra matnga sharh beriladi. Nega soyga suv kelmay qoʻyganligi haqida, togʻdagi qorlar nega erib ketganligi haqida, yomgʻir nega dehqonga men suv berolmayman degani haqida, qorning nega jahli chiqqanligi haqida oʻquvchilarga maʼlumot beriladi. Dehqon qanday xato qilganligi, qanday oʻz xatolarini tushunib yetganligi ham aytilib oʻtilishi lozim.

Shu oʻrinda oʻquvchilarga oʻzbek xalq maqoli “Xato qilmoq border – Tuzatmaslik ordir” maqolining mazmunini tushuntirish lozim.

Matn oxirida berilgan savollarga:

- 1) Nima uchun soyning suvvi qurib qoldi?
- 2) Dehqon nimalardan suv soʻrabdi?
- 3) Dehqon soyga qanday qilib suv keltirdi?
- 4) Yozuvchi ertak orqali nima demoqchi? kabi savollarga javob topishga oʻrgatish.

Keyingi mavzu “Bogʻim” Habib Rahmat sheʼri. Oʻquvchilar bilan birgalikda “Bogʻim” sheʼrini ifodali oʻqish.

Bogʻim

Habib Rahmat

Dunyoni bogʻ etishni

Orzu qilar odamlar

Daraxt ekish sirlarin

Oʻrgatdilar dadamlar

Oʻyib bir gaz chuqurcha

Nihol ekdim avaylab,

Parvarish qildim dildan

Unga mehrimni boylab.

Koʻkka choʻzib qomatin

Quloch yozar shoxlari

Oʻsishidan zavqlanib

Yana mehr boyladim.

Chaman boʻlib koʻrindi

Har bir daraxt,

Har bir shox,

Koʻring qanday chiroyli


Oʻzim bunyod qilgan bogʻ.


Oʻquvchilar bilan birgalikda oʻqiladi va darsga oʻquvchilarga uyga vazifa berish bilan birga dars yakunladi.

Boʻlim yuzasidan takrorlash oʻtkaziladi:

- I. 1) Bir yilda nechta fasl bor? Fasllarning oʻxshash va farqli tomonlarini ayting.
 - 2) “Yer sevarni – el sevar” matnida ota-ona va Ona Yer haqida nima deyilgan? Matndan shu oʻrinni toping va oʻqing.
 - 3) Avval oʻqiganlaringizni eslang. Nega Ona Vatan der ekanmiz?
 - 4) Nima uchun Ona Yer deymiz?
- II. Oʻquvchilarning lugʻat boyligini aniqlash.

Boshqotirman yeching “K” harfi bilan boshlanadigan besh harfli soʻz yozing.





Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'quvchilar ongida tabiatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish uchun avvalo ularni tabiatda bo'ladigan o'zgarishlar haqida tushuncha hosil qilish lozim.

O'quvchilarga tabiatda bo'ladigan o'zgarishlarni, yomg'ir yog'ishini, chaqmoq chaqishi-yu, qor yog'ish hodisalarini to'g'ri tushuntirishdan iborat bo'ladi.

O'quvchilarga atrof-muhit tozaligini asrash va uni ifloslantirmasliklarini o'rgatish kerak.

O'quvchilar og'zaki va yozma nutqida yo'l qo'ygan nutqiy xatolarni o'z vaqtida to'g'rilab borish zarur. O'quvchi yo'l qo'ygan xatosining to'g'ri variantini o'zlashtirsin, imkoni bo'lsa, xatoning kelib chiqish sababini tushunsin. Xatoni to'g'rilashning eng foydali usuli yo'l qo'ygan xatosini o'quvchining o'zi to'g'rilashi hisoblanadi. O'quvchi xatosini to'g'rilay olmasa, uni o'qituvchi to'g'rilaydi. Xato turiga qarab to'g'rilanadi, gap yoki so'z birikmasi qayta tuziladi, so'z boshqasi bilan almashtiriladi, zarur so'z qo'shiladi, ortiqchasi ustidan chiziladi.

Insho yoki inshoni tahlil qilish darsida xatolar ustida ishlash maqsadi uchun darsning ikkinchi qismi – 20-25 minuti ajratiladi. O'qituvchi o'quvchilar insho yoki inshoni qanday yozganlari haqida qisqa tushuncha berib, eng yaxshi yozilgan matnни o'qib beradi, mazmundagi, mavzuni yoritishdagi kamchiliklar, imloviy va nutqiy xatolar aniqlanadi. Yo'l qo'yilgan xatoni to'g'rilash yo'li tushuntiriladi. Shundan so'ng xato ustida birgalikda ishlanadi: o'qituvchi yo'l qo'yilgan xatoning bir turini to'g'rilash yuzasidan topshiriq beradi: «Noo'rin ishlatilgan so'zni boshqasi bilan almashtiring». Xatosi bor matnни o'qib yoki yozib beradi, o'quvchilar yo'l qo'yilgan xatoni topadilar, maqsadga muvofiq so'z bilan almashtirib, uni to'g'rilaydilar va tushuntiradilar.

Ayrim o'quvchilar yo'l qo'ygan individual xatolar darsdan tashqari vaqtda, qo'shimcha mashg'ulot jarayonida to'g'rilanadi. O'quvchi bilan individual suhbatda ham, sinfda jamoa bo'lib ishlash jarayonidagi kabi, bolalarning aqliy faolligiga, ya'ni u xatosi nimadalgini tushunibgina qolmay, balki uni to'g'rilashi va tushuntirishiga erishish muhimdir.

Grammatik mavzuni o'rganishda o'quvchilar yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatoning oldini olish uchun mazkur mavzu ularga qanday imkoniyatlar yaratishi tushuntiriladi. Masalan, «Olmosh» mavzusini o'rganganda, kishilik olmoshlarining takrorlangan so'zlar o'rnida qanday ishlatilishi o'quvchilarga misollar bilan tushuntirilsa, ular ham insho yoki insho yozishda shunga rioya qiladilar.

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishdagi muvaffaqiyati uch asosiy omilga bog'liq: birinchidan, so'zga e'tibor bilan munosabatda bo'lish, bolalarning ko'p mutolaa qilishi, atrofidagi kishilarning to'g'ri va ifodali nutqi, ya'ni nutqiy sharoit; ikkinchidan, bolalarning nutqiy tajribasi qanday tashkil etilishi; uchinchidan, nutq o'stirishda o'qituvchining til nazariyasiga, grammatikaga, leksikologiya va stilistika elementlariga asoslanish ko'nikmasiga **bog'liq.**

REJA:

I. KIRISH.

II. ASOSIY QISM:

1.bob.Insho yozish malakasi va uni shakllantirish usullari.

1.1.Insho turlari va uni tashkil etish.

1.2.Inshoni tashkil etish bosqichlari

1.3. Insho mavzusi va uni yoritish uslubiyati

2-bob.Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsligida berilgan tabiat mavzusidagi matnlar asosida insho tashkil etish.

2.1. Tabiat mavzusidagi insholarni tashkil etish

2.2.O'quvchilarni tarbiyalashda inshoning ahamiyati.

2.3.Boshlang'ich sinflarda tabiat tasviri bilan bog'liq insholarni tashkil etish usullari.

2.4.O'quvchilar inshosini tahlil qilish

Ilova

III. XULOSA.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Ilova

2- sinf O'qish fanidan "Qish" mavzusida insho darsini tashkil etish

Darsning mavzusi: Qish- Tursunboy Adashboyev sheri. Maqol.

Topishmoq. Tez aytish.

Darsning maqsadlari:

- a) **Talimiy:** Tursunboy Adashboyevning "Qish" sherini ifodali o'qishga o'rgatish,. O'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish. Ularning o'qish texnikalarini mukammal egallashlariga erishish. Ifodali, ongli va diqqat bilan o'qishlariga e'tabor berish. Darsni tabiatshunoslik, odobnoma fanlariga bog'lab o'tish.
- b) **Tarbiyaviy:** Tevarak-atrof, yashil olam boyliklarini asrashga, ona tabiatni mihofaza qilishga, qushlar hayvonot olamiga g'amxo'r bo'lishga o'rgatish. O'zaro hamjihat va do'stona munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash.
- c) **Rivojlantiruvchi:** O'quvchilarning erkin va mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish.

Dars turi: Noan'anaviy.

Dars uslubi: Suhbat, savol-javob va "Baliq skleti" usuli.

Dars jihozi: Mavzuga doir rasmlar, darslik, tarqatma material, archa bezaklari

Darsning fanlararo uzviyligi:

Ona tili, matematika, rasm, mehnat, atrofimizdagi olam, odobnoma.

Darsning borishi.

I.Tashkiliy bosqich:

O'quvchilardan sana, oy, kun va ob-havo haqida ma'lumot olinadi.

Turli mavzularda qisqacha suhbat uyushtiriladi.

Bularga quyidagi savollar beriladi :

- Vatanimiz qanday nom bilan ataladi?
- O'zbekiston.
- Viloyatimiz-chi?
- Samarqand.
- Qaysi tumanda yashaymiz?

- Bulung`ur tumanida.
- Biz o`qiydigan ilm maskani?
- 23- maktab.
- Sinifimiz 1-g sinf
- Shiorimiz.
- “Aql koni-kitob, uni sevganning yoli oftob”.

1.O`tg`an mavzuni mustahkamlash.

Uyga qanday mavzu berilgan edi?

- Suv-shifo mavzusi.

O`quvchilardan 4-5 tasini mavzu mazmuni sozlab berishlarini aytish.

- Suv haqida ma`lumot so`rash.
- Suvni nima qilamiz?
- Ichamiz, yuvinamiz, kiyimlarimizni, idish- tovoqlarni yuvishda ishlatamiz.
- Suvga tuflash mumkinmi?
- Yo`q, suv bu obi-hayot.
- Ichimlik suvini isrof qilish mumkinmi?
- Yo`q, ichimlik suvini tejash kerak.

O`quvchilar javobini unumlashtirish va to`ldirish.

- Aytinglarchi bolalar qanday sport turlarinibilasiz?
- Futbol, suzish, kurash.

II. Asosiy qism.

1. Yangi mavzuning bayoni.

Kichik sahna ko`rinish. Qor malikasi ertagidan bir parcha.

Qor malikasi: Kay men kelgunimcha mana bu muz parchalarini joy-joyiga taxlab qo`y .

Avtor: Kay muz parchalarini yerda o`tirgan holda taxlar edi.

Kay: Ho`p bo`ladi.

- Qani bolalar aytinglarchi bu sahna ko`rinish qaysi ertakdan?
- Qor malikasi ertagidan.
- Qor qaysi faslda yog`adi?

- Qish faslida.
- Hozir o`lkamizda qaysi fasl?
- Qish fasli.
- Bir yilda necha fasl bor?
- To`rtida.
- Qish oylari qaysilar?
- Dekabr, yanvar, fevral.

O`qituvchi: Sizlarga hozir baliq skletini beraman. Ana shu baliq qovurg`alarida berilgan savollarga javob berasizlar.

Har bir faslga qaysi oylar kiradi?

Demak , bolajonlar, o`lkamizda qish fasli ekan. Sizlarga tarqatma material beraman, undagi savollarga javob berasizlar.

1. Qishda ob- havo qanday bo`ladi?
2. Qishda qanday qushlar o`lkamizda qishlab qoladi?
3. Qishda qanday o`yinlar o`ynaladi?
4. Qishda biz uchun eng sevimli bayram qaysi?
5. Qorbobo qachon mehmonga keladi?

O`quvchilarning savolini tinglash va ularning javobini to`ldirib umumlashtirish.

Bugungi yangi mavzumiz Tursunboy Adashboyevning - “Qish” sherini ifodali o`qishga o`rganamiz.

Darslikdagi rasm asosida suhbat o`tkazish.

Tursunboy Adashboyev 1939 yilda Qirg`iziston davlatining O`sh viloyatiga qarashli Olabuqa tumanida tug`ilgan. U o`zbek va qirg`iz tillarida ijod qiladi.

Darslikni ochib she`rni ifodali o`qib berish.

Shudgor uzra uvillar,
 Ayoz bobo bo`roni.
 Mehmon bo`ldi qish fasli,
 Oq choyshabga o`ralib.
 Bundan buyon ko`cha-ko`yda
 Piyma etik qarchillar

Tinim bermas chanalarga

Shokir, Ra`no Barchinlar.

Qator oralatib o`quvchilarni navbatma-navbat o`qitish.

Bolajonlar men Qorbobodan bir maktub oldim, hozir sizlarga Qorboboning maktubini o`qib beraman.

- Asalomu alaykum aziz bolajonlar, sog`- salomat yuribsizlarmi, darslardan a`lo baholar olayapsizlarmi? Men uzoq qorli o`lkalarda yashovchi Qorbobo bo`laman. Mana birinchi qorimni ham yubordim, erta- indin o`zim ham yetib boraman, ungacha siz aziz bolajonlar “Archa bayramini nishonlash uchun sinfingizdagi archani chiroyli qilib bezatib qo`yishingiz lozim. Bayramga o`rmon hayvonlarini ham taklif etishni unutmang. Archa bayramida ko`rushguncha xayr,- deb oppoq uzunsoqol Qorbobo.

Qorbobomiz aytganidek archani bezatishimiz uchun darsligimizda berilgan maqol, topishmoq va tez aytishlarni ifodali o`qib bergan o`quvchilar o`yinchoqlarni iladilar.

Dastlab o`qituvchi maqolni o`qib izohlab beradi.

Qish g`amini yozda ye.

Qishda daraxtlar uyquga ketadi, yerlarimiz dam oladi. Lekin biz sog`lom bo`lishimiz uchun meva va sabzavotlarni iste`mol qilishimiz kerak. Ana shularning hammasini yozda yetishtirib qishga g`amlab qo`yamiz.

Endi topishmoq o`qiyman, javobini topishga xarakat qilasizlar.

Qishda terlab ishlaydi,

Boshqa mahal qishlaydi (pechka)

1. Tunikani chertadi,

Kesaklarni kertadi.

Biror sho`xlik qilgach u

Yerga singib ketadi. (qor)

2. Qish chog`i kapalaklar

Uchub yurar osmonda

Qiziq, yo`qolib qolar

Asfaltga qo`ngan onda. (qorparcha)

Tez aytish:

Qishda kishmish pishmashmish.

Kishmish pishsa, qishmashmish.

2. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Yangi mavzuni qanday o`zlashtirganligini aniqlash maqsadida savollar beraman:

Qish oylari qaysi oylar ekan?

- Qishda kunlar qanday bo`ladi?
- Qishda o`ynaladigan o`yinlar qaysilar?

Biz o`ynayotganimizda bir- birimiz bilan janjallashmay, inoq bo`lib o`ynashimiz kerak.

Dars sidqidillik bilan qatnashganlarni rag`batlantiraman va baholayman.

III. Darsning yakuni.

Uy ishi; bugungi mavzuni ifodali o`qib kelish.

SHAXS VA NARSA NOMINI BILDIRGAN SO‘ZLAR

159- mashq. Rasmga qarang. Rasmda qaysi fasl tasvirlangan? Unda kimlar va nimalarni ko‘ryapsiz?



Kim? va nima? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlarni ayting.

Kim? *Ota,*

Nima? *Qor, chana,*

Rasm bo‘yicha matn tuzing va yozing.

Shaxs (kishi)lar nomini bildirgan so‘zlar *k i m ?* so‘rog‘iga javob bo‘ladi. *K i m ?— ishchi, shifokor, dehqon, otboqar.*

Narsalar nomini bildirgan so‘zlar *n i m a ?* so‘rog‘iga javob bo‘ladi. *N i m a ?— uy, chumchuq, chumoli, ot.*

Insho yozishda joy va narsa nomlariga alohida e‘tibor berish talab qilinadi.



Qaysi soʻzlar *nimalar*? soʻrogʻiga javob boʻladi?

165- mashq. Rasmlarni koʻrib chiqing, soʻroqlarga javob bering.




Nima? Nima? Nimalar? Nimalar?

Rasmi tasvirlar oʻquvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi vositadir

211- mashq. Rasmga qarang. Bolalarga ism qoʻying va hikoya tuzing.



Matnni oʻqing.



Tabiat tasviri bilan bog'liq insholarni tashkil qilish



Aqli bog'bon

Tabiat tasviri bilan bog'liq insholarni tashkil qilish

I.Siyosiy va rahbariy adabiyotlar:

1. Karimov.I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. Toshkent. “Ma`naviyat” 2008.172.
2. O`zbekiston Respublikasi Davlat ta`lim standartlari. Toshkent.2015.
3. Barkamol avlod -O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent, 1997.
4. O`zbekiston Respublikasi xalq ta`limi Vazirligi “Bolajon” tayanch dasturi, Toshkent. 2010.

II.Ilmiy nashrlar:

5. Ta`lim taraqqiyoti. Axborotnoma. 1- maxsus son, 2014 .
6. Umumiy o`rta ta`limning davlat ta`lim standartlari va o`quv dasturi // O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligining axborotnomasi, 7-maxsus son. T.: Sharq, 2015.
7. Boshlang`ich ta`lim bo`yicha yangi tahrirdagi o`quv dasturi // Boshlang`ich. ta`lim jurnali. Toshkent, 2015.№5.
8. R. Safarova. Nutqiy ko`nikmalarni tekshirish asoslari. //Boshl. ta`l. jurnali. Toshkent, 2014. №3.
9. Safarov.O. Oliy o`quv yurtlarida o`quvchilar adabiyotini o`qitish muammolari. “Til va adabiyot ta`limi”. 2012. 3-4-sonlar.
10. Zaynutdinova M. – O`quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyatlarini rivojlantirish omillari. Xalq ta`limi jurnali, № 1, 2013.

III.Darslik va o`quv qo`llanmalari:

11. Husanboyeva.Q. Tahlil - adabiyotni anglash yo`li. Toshkent. “Muharrir” nashriyoti. 2013.432 bet.
12. Husanboyeva.Q. Adabiyot – Ma`naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. Toshkent. Alisher navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.2009.-368 bet.
13. Abdullayeva K. Nazarov K. Yo`ldosheva Sh. Savod o`rgatish darslari . T.: O`qituvchi.1913 .

14. Safarova R. va boshqalar “Alifbe” T. 2015.
15. G’ulomov M. Yozuv daftari. T. Ma’naviyat. 2012
16. Safarova R. Va b. Savod o’rgatish. T. Ma’naviyat. 2015.
17. G’afforova T. G’ulomova X. Eshturdiyeva G. 1- sinfda savod o’rgatish. T.: Sharq. 1915.
18. G’afforova T, Shodmonov E, Eshturdiyeva G. Ona tili . 1-sinf uchun. T. : O’qituvchi .1915.
19. Abdullayeva K. Ona tili . T.O’qituvchi .2014.
20. Gapparova T, Shodmonov E, G’ulomova X. Ona tili . 1-sinf uchun.
21. T .Sharq. 2015.
22. G’ulomova X. G’afforova T. 1- sinfda ona tili darslari. T.: Sharq. 2015.
23. Qosimova K. Fuzailov S. Ne’matova A. Ona tili . 2- sinf uchun T.:
24. Cho’lpon. 2015.
25. Qosimova K. Ne’matova A. 2- sinfda ona tili darslari T. Cho’lpon. 2014.
26. Fuzailov S, Xudoberganova M, Ona tili . 3- sinf uchun T. O’qituvchi .2014.
27. Xudoyberganova M. Muxtorova M. 3- sinfda ona tili darslari. 3- sinf uchun T. O’qituvchi .2014.
28. Ikromova R. G’ulomova X, Yo’ldosheva Sh, Shodmonqulova D. Ona tili 4- sinf uchun T. O’qituvchi. 2014-yil.
29. Alekseyev M.N. Deduksiya i induksiya v uchebnom prosesse. // Sovetskaya pedagogika, 1969, № 1, s. 104
30. G’ulomov A., Ne`matov H. Ona tili ta`limi mazmuni. –T.: O’qituvchi, 2005.
31. Sh.Nurullayeva. Mustaqil fikrlash mezonlari. // Xalq ta`limi jurnali. 2011.39-b.
32. Umarova M., Hakimova Sh. O’qish kitobi. –Toshkent, Ijod dunyosi.2012.240b.
33. Hamroyev.A. Boshlang’ich sinfda o’quvchilar ishini ijodiy tashkil etish.T.2014.

IV.Elektron ta`lim resurslari

1. www.ziyonet.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.tdpu.uz

Mundarija

I. Kirish.....	
II. Asosiy qism.....	
1.bob.Insho yozish malakasi va uni shakllantirish usullari.....	
1.1.Insho turlari va uni tashkil etish.....	
1.2.Inshoni tashkil etish bosqichlari.....	
1.3. Insho mavzusi va uni yoritish uslubiyati.....	
2-bob.Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsligida berilgan tabiat mavzusidagi matnlar asosida insho tashkil etish.....	
2.1. Tabiat mavzusidagi insholarni tashkil etish.....	
2.2.O'quvchilarni tarbiyalashda inshoning ahamiyati.....	
2.3.Boshlang'ich sinflarda tabiat tasviri bilan bog'liq insholarni tashkil etish usullari.....	
2.4.O'quvchilar inshosini tahlil qilish.....	
III. Xulosa.....	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	

